



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA  
ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI  
**ZO'RAVONLIKNING**  
BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH



Har bir bola

himoya

va

hurmatga

loyiqdir!





O'zbekiston Respublikasi  
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi  
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**MAKTABGACHA VA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA ALOHIDA  
TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA  
SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH**  
(nomli o'quv uslubiy qo'llanma)

Toshkent 2026-yil



**“Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga nisbatan zoʻravonlikni oldini olish”** oʻquv uslubiy qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy metodik markazi huzuridagi “Inklyuziv taʼlim va psixologiya” yoʻnalishi boʻyicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yigʻilish bayoni bilan nashrga maʼqullangan.

© **S.Moʻminov, M.Kasimova, O.Odiljonov, U.Xudayberdiyev**

**Masʼul muharrirlar:**

**G.Alimova** – Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi;

**D.Nurmatov** – Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

**Taqrizchilar:**

**A.Kamolov** – Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi Taʼlim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshligʻi, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**H.Usmanova** – Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi huzuridagi Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish va psixologikpedagogik respublika tashxis markazi psixolog–metodisti, psixologiya fanlari nomzodi;

**X.Yunusova** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti oʻqituvchisi, PhD.

**Dizayner va sahifalovchi:**

**N.Togʻayev** - Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi Inklyuziv taʼlimni rivojlantirish, mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish va ekologik diplomatiya boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Ushbu oʻquv uslubiy qoʻllanma barcha jamiyat aʼzolari uchun moʻljallangan boʻlib alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar inklyuziv taʼlim orqali boshqa (sogʻlom) bolalar bilan birgalikda taʼlim olishi va shu jarayondagi turli xildagi zoʻravonlik holatlariga uchramasligi yuzasidan amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlar haqida maʼlumotlar berilgan.

**ISBN**

# MUNDARIJA

## KIRISHI

## I BOB. ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR VA INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY-ASOSIY MASALALARI.

- 1.1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunchasi va ularning turlari;
- 1.2. Inklyuziv ta'limning mazmuni, maqsadi va tamoyillari;
- 1.3. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda inklyuziv yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari;
- 1.4. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish jihatlari.

## II BOB. BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK: TUSHUNCHA, TURLARI VA XAVF OMILLARI.

- 2.1. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va tasnifi (Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling));
- 2.2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar zo'ravonlikka ko'proq duch kelishining sabablari;
- 2.3. Ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning namoyon bo'lish shakllari;
- 2.4. Zo'ravonlikni bolaning rivojlanishiga salbiy ta'siri.

## III BOB. TA'LIM MUASSASALARIDA ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISH BO'YICHA AMALIY ISHLAR.

- 3.1. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mas'uliyati;
- 3.2. Individual ta'lim dasturlari orqali himoya mexanizmlarini kuchaytirish;
- 3.3. Tarbiyachi, pedagog, psixolog, maxsus pedagog, yordamchi (assistent) xodim va tyutorlarning hamkorligi;
- 3.4. Xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish.

## IV BOB. ZO'RAVONLIKNI ANIQLASH, BAHOLASH VA HIMOYA QILISH MEKANIZMLARI

- 4.1. Zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash belgilari;
- 4.2. Zo'ravonlikni xavflilik darajasini baholash mezonlari;
- 4.3. Bola uchun individual himoya rejasini ishlab chiqish;

## **| V BOB. OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI**

- 5.1. Ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan ishlash mexanizmlari;
- 5.2. Bolaning huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy sheriklik;
- 5.3. Mahalla, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik;

## **| VI BOB. METODIK TAVSIYALAR VA AMALIY MASHG'ULOTLAR**

- 6.1. Zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan trening va o'yinlar;
- 6.2. Pedagoglar uchun amaliy keyslar va vaziyatli topshiriqlar;
- 6.3. Bolalar bilan ishlashda etik va professional yondashuv.

## **| XULOSA**

## **| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda kamsitish va zo'ravonlikning barcha shakllariga yo'l qo'ymaslik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi izchil takomillashib, har bir bolaning, jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma har bir bolaning jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy xususiyatlaridan qat'i nazar, teng imkoniyatlar asosida sifatli ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim olishi belgilangan.

Mazkur Qonunning 15-moddasida inklyuziv ta'lim "Ta'lim olish shakllaridan biri sifatida" e'tirof etilgan. 20-moddada esa inklyuziv ta'limning mohiyati alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlar xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat ekani aniq ifodalangan. Qonunning 55-moddasida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni (shaxslarni) o'qitish va tarbiyalash bo'yicha davlat majburiyatlari belgilab berilib, ularga umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda qo'shimcha ta'limni inklyuziv shaklda bepul olish kafolatlangan.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishning amaliy mexanizmlarini ham belgilab berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi ham davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2024-yilda qabul qilinib, bolalarning xavfsiz va hurmatga asoslangan muhitda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni mustahkamladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi 440-son qarori bilan bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, xavf darajasini baholash, himoya rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi belgilandi. Mazkur o'quv-

uslubiy qo'llanma maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish masalalariga bag'ishlangan. Qo'llanmada nazariy asoslar bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi darajasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan aniq amaliy choralar, pedagoglar, mutaxassislar va ota-onalarning o'zaro hamkorlik mexanizmlari yoritilgan.

[https://lex.uz/docs/-6445145;](https://lex.uz/docs/-6445145)  
[https://lex.uz/docs/-5013007;](https://lex.uz/docs/-5013007)  
[https://lex.uz/ru/docs/-5044711;](https://lex.uz/ru/docs/-5044711)  
[https://lex.uz/ru/docs/-5679836;](https://lex.uz/ru/docs/-5679836)  
[https://lex.uz/uz/docs/-7648472.](https://lex.uz/uz/docs/-7648472)

## I BOB. ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR VA INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY-ASOSIY MASALALARI

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunchasi va ularning turlari

**Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi** – ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

**Inklyuziv ta'lim** – alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim.

**Inklyuziv ta'lim sinfi** – maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf.

**Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi** – maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf.

**Inklyuziv ta'lim va tarbiya** – bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon.

**Inklyuziv guruh** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o'qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan guruhlar;

**Individual ta'lim dasturi** – inklyuziv ta'limga jalb qilingan har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib, uzoq va qisqa muddatli tuziladigan reja;

**Rivojlanish sohasi** – bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalish.

2 yoshdan 18 yoshgacha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kompleks psixologik-tibbiy-pedagogik tekshiruvdan o'tkazish hamda davlat ta'lim muassasalariga yuborish uchun xulosa berish psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

bolaning alohida ta'limga ehtiyojlarini aniqlash uchun ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida ko'rikdan o'tkazadi;

bolalar ko'rikdan o'tkazishda u bilan bevosita muloqot qiladi va undagi

nuqsonlarni tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganadi;

bolaning rivojlanishidagi jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari haqida yashash joyidagi shifoxona vrachlari tomonidan qo'yilgan tashxisning ishonchliligini o'rganadi;

bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni kompleks ravishda tekshirish natijalari asosida uning imkoniyatlarini aniqlaydi;

bolaning alohida ta'limga bo'lgan ehtiyojlari asosida uni tegishli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti, qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ixtisoslashtirilgan va inklyuziv guruhlariga, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga, inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim tashkilotiga va umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, "G'amxo'rlik" guruhlariga "Muruvvat" nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uylariga (shu jumladan, kunduzgi parvarishlash guruhlariga), imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlarga, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan kunduzgi parvarish xizmatiga hamda uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim olishga yuborish uchun xulosa beradi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni davlat ta'lim muassasasidan boshqa muassasaga (boshqa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga, inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim muassasasiga va umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, "Muruvvat" nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uylariga, sog'liqni saqlash muassasalariga) o'tkazish hamda uyda yakka tartibda ta'lim berish tashkil qilinishi yuzasidan xulosa beradi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan pedagog, psixolog, tibbiyot xodimlari hamda qonuniy vakillarga zarur maslahatlar beradi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qaroriga muvofiq psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga yuborish to'g'risidagi xulosasi bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar bo'lgan quyidagi yosh toifalaridagi bolalarga beriladi:

ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun - 3 yoshdan 7 yoshgacha;  
eshitishda og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun - 2 yoshdan 7 yoshgacha;  
tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan bolalarga — 2 yoshdan 7 yoshgacha;

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalarga - 3 yoshdan 7 yoshgacha;  
ruhiy rivojlanishda kechikayotgan bolalarga - 3 yoshdan 7 yoshgacha;  
aqliy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarga - 3 yoshdan 7 yoshgacha;  
tug'ma va irsiy kasalliklar (Daun sindromi, Shereshev-Terner sindromi,

Klaynfelter sindromi, spinal amiotrofiyalar, Kornellii-de Lange sindromi, Vilyams sindromi, Pradera-Villi sindromi, Nunan sindromi) tufayli rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarga - 2 yoshdan 7 yoshgacha.

Quyidagi nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarga davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'liq kunli guruhlariga yuborish to'g'risidagi xulosa berilmaydi:

og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik;  
shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;  
tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;  
turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;  
yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarga yoki inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim muassasalarga yuborish to'g'risidagi xulosasi jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar bo'lgan quyidagi yosh toifalaridagi bolalarga beriladi:

ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalarga - 6 yoshdan 18 yoshgacha (6 yoshdan tayyorlov guruhiga);

eshitishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalarga - 6 yoshdan 18 yoshgacha (6 yoshdan tayyorlov guruhiga);

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan bolalarga - 7 yoshdan 18 yoshgacha;

autizm bilan kasallangan bolalarga - 6 yoshdan 16 yoshgacha (6 yoshdan tayyorlov guruhiga);

aqliy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarga - 6 yoshdan 16 yoshgacha (6 yoshdan tayyorlov guruhiga).

Quyidagi nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarga maktab, maktab-internatlar sinflariga yuborish to'g'risidagi xulosa berilmaydi:

og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik;  
shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;  
tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;  
turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;  
asab tizimining organik shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab turolmaslik;

yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan qisqa muddatli ta'lim va tarbiya berishga mo'ljallangan "G'amxo'rlik" guruhlariga yuborish to'g'risidagi xulosasi jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar bo'lgan quyidagi yosh toifalaridagi bolalarga beriladi:

og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik — 3 yoshdan 7 yoshgacha;

GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 4-5 darajadagi Bolalar serebral falaji (G80)

bo'lgan bolalarda yengil va mo'tadil darajadagi aqliy zaiflik - 3 yoshdan 7 yoshgacha;

shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari - 3 yoshdan 7 yoshgacha;

tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlari kuzatiladigan ruhiy yoki aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar bo'lgan bolalar - 3 yoshdan 7 yoshgacha;

turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari - 3 yoshdan 7 yoshgacha;

ko'r-kar-soqovlik - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarida tashkil etilgan qisqa muddatli ta'lim va tarbiya berishga mo'ljallangan "G'amxo'rlik" guruhlariga yuborish to'g'risidagi xulosasi jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar bo'lgan quyidagi yosh toifalaridagi bolalarga beriladi:

og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik - 6 yoshdan 16 yoshgacha;

GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 4-5 darajadagi Bolalar serebral falaji (G80) bo'lgan bolalarda yengil va mo'tadil darajadagi aqliy zaiflik - 6 yoshdan 16 yoshgacha;

shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari - 6 yoshdan 16 yoshgacha;

tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlari kuzatiladigan aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar bo'lgan bolalar - 6 yoshdan 16 yoshgacha;

turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari - 6 yoshdan 16 yoshgacha;

ko'r-kar-soqovlik - 6 yoshdan 16 yoshgacha.

### Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo'ladigan tibbiy ko'rsatmalar (maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun)

| No                                                                   | Kasallik nomi                                              | Xalqaro Kasalliklar Tasnifi (XKT-10) | Tavsiya etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining turi                                                            |
|----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tibbiy ko'rsatmalar</b> |                                                            |                                      |                                                                                                                   |
| 1                                                                    | Ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar:                           |                                      |                                                                                                                   |
|                                                                      | Psixologik rivojlanishning aralash spetsifik buzilishlari; | F83                                  | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi hamda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti. |
|                                                                      | Bolalar autizmi.                                           | F84.0                                |                                                                                                                   |

|                |                                                                                          |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------|-------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2              | Ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar:                                                         |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Yengil darajadagi aqliy zaiflik;                                                         | F70   | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi hamda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                                                                                                  |
|                | Mo'tadil aqliy zaiflik.                                                                  | F71   | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                                                                                                                             |
| 3              | Nutqdagi nuqsonlar:                                                                      |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Ekspressiv nutqning buzilishi (nutq rivojlanishining birinchi darajali motor alaliyasi); | F80.1 | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                                                                                                                   |
|                | Retseptiv nutqning buzilishi (sensor alaliya);                                           | F80.2 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Rinolaliya (nutq apparatining korreksiya bo'yicha operatsiyalardan keyingi holat);       | R49.2 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | O'rtacha va og'ir darajadagi duduqlik;                                                   | F98.5 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Dizartriya (markaziy nerv tizimining organik shikastlanishi bilan);                      | R47.1 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Bolalar afaziyasi.                                                                       | F80.3 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| 4              | Ko'rishida nuqsonlar:                                                                    |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | Ko'zi ojizlik (amovroz);                                                                 | N54.1 | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                                                                                                                             |
|                | Tug'ma nuqsonlar:                                                                        |       | Tibbiy ko'rsatmalar korreksiyadan so'ng bolaning ko'rish o'tkirligi 0,2 gacha bo'lganda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotiga, ko'rish o'tkirligi 0,4 gacha bo'lganda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotiga xulosa beriladi |
|                | Mikroftalm, Mikrokornea, Anoftalm;                                                       | Q11   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                | To'r pardasining rivojlanishidagi tug'ma nuqsonlar;                                      |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Retinoblastoma |                                                                                          |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

|          |                                                                                                                |          |                                                         |
|----------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|---------------------------------------------------------|
|          | Ruhiiy rivojlanishdagi nuqsonlar:                                                                              |          |                                                         |
|          | Koloboma, preretiniopatiya (chala tugʻilgan bolalar retinopatiyasi);                                           | F70      |                                                         |
|          | Koʻrish nervining atrofiyasi;                                                                                  | N47.2    |                                                         |
|          | Koʻrish nervi disk va makulasining ogʻir darajadagi gipoplaziyasi;                                             |          |                                                         |
|          | Albinizm;                                                                                                      | E70.3    |                                                         |
|          | Aniridiya;                                                                                                     | Q13.1    |                                                         |
|          | Katarakta:                                                                                                     | N26.0    |                                                         |
|          | Markaziy zonada toʻliq yoki qisman xiralashish;                                                                |          |                                                         |
|          | Artifakiya;                                                                                                    | N27.0    |                                                         |
|          | Afakiya (koʻz gavhari yoʻqligi);                                                                               |          |                                                         |
|          | Koʻz gavhari siljishi (joyi oʻzgarishi);                                                                       |          |                                                         |
|          | koʻz gavharining chiqishi;                                                                                     | N27.0    |                                                         |
|          | Glaukoma (tugʻma, ikkilamchi);                                                                                 | N40 — 42 |                                                         |
|          | Tugʻma miopiyaning yuqori darajasi;                                                                            | N52.1    |                                                         |
|          | Gipermetropiyaning yuqori darajasi;                                                                            | N52.0    |                                                         |
|          | j) Toʻr parda ajralishi, uning yorilishi yoki yirtilishlari;                                                   | N33      |                                                         |
| Nistagm. | N55                                                                                                            |          |                                                         |
| 5        | Eshitishida nuqsonlar: N90.3                                                                                   |          |                                                         |
|          | Koxlear implantatsiyadan keyin;                                                                                |          | Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha taʼlim tashkiloti |
|          | Neyrosensor eshitish zaifligining II darajasi (eshitishning 41 — 55 db gacha pasayishi), (quloqni protezlash); |          |                                                         |

|   |                                                                                                                                                                                                                                                                                             |       |                                                                                                                                                                                                                      |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | <p>Neyrosensor eshitish zaifligining III darajasi (eshitishning 56 — 70 db gacha pasayishi), (quloqni protezlash);</p> <p>Neyrosensor eshitish zaifligining IV darajasi (eshitishning 91 db gacha pasayishi);</p> <p>Karlik yoki kar-soqovlik (eshitishning 91 db dan ortiq pasayishi).</p> |       | <p>Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi hamda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti</p> <p>Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti</p> |
|   | Tayanch-harakat apparati nuqsonlari:                                                                                                                                                                                                                                                        |       |                                                                                                                                                                                                                      |
| 6 | 3 va 4 darajali skolioz (tug'ma va orttirilgan);                                                                                                                                                                                                                                            | M41   | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi hamda inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                     |
|   | Ko'krak qafasining 3 va 4 darajali girdobsimon deformatsiyasi;                                                                                                                                                                                                                              |       |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Ko'krak qafasining 3 va 4 darajali kilsimon deformatsiyasi;                                                                                                                                                                                                                                 |       |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | 3 va 4 darajali kifoz;                                                                                                                                                                                                                                                                      | M40   |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Artrogripoz;                                                                                                                                                                                                                                                                                | Q74.3 |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Bolalar serebral falaji (BSF) (GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 3-4 daraja) va boshqa nevrologik patologiyalar oqibatida ortopedik deformatsiyalari;                                                                                                                                         | G80   |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Bosh va orqa miya kasalliklari oqibatida kelib chiquvchi ortopedik deformatsiyalar (istisno monoplegiyalar);                                                                                                                                                                                |       |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Osteomiyelit asoratlari (jarrohlik muolajasidan keyingi holatlar);                                                                                                                                                                                                                          | M86   |                                                                                                                                                                                                                      |
|   | Og'ir tug'ma maymoqlik (jarrohlik muolajasidan keyingi holatlar);                                                                                                                                                                                                                           |       |                                                                                                                                                                                                                      |

|  |                                                                                                                                                                                     |       |  |
|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|--|
|  | Qo'l va oyoqlarda jarohatdan keyingi bo'g'imlar og'ir darajadagi kontrakturasi;                                                                                                     |       |  |
|  | Ortopediyadagi suyak skeletining tizim kasalliklari (axondroplaziya, disxondroplaziya, xondrodistrofiya);                                                                           | Q77.4 |  |
|  | Tug'ma son suyagi chiqishi (operativ davolashdan keyingi holat);                                                                                                                    | S73.0 |  |
|  | Aniqlanmagan oyoq-qo'l(lar) tug'ma anomaliyalari (tug'ma rivojlanish anomaliyasi oqibatida amputatsion cho'ltoqlik (tayanch-harakat funksional yetishmovchiligiga olib keladigan)). | Q74.9 |  |

## II. "G'amxo'rlik" guruhi uchun tibbiy ko'rsatmalar

|    |                                                                                                                                       |              |                                                                 |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|-----------------------------------------------------------------|
| 7  | GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 4-5 darajadagi Bolalar serebral falaji bo'lgan bolalarda yengil va mo'tadil darajadagi aqliy zaiflik; | G80+F70 /F71 | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti |
| 8  | Og'ir darajadagi aqliy zaiflik.                                                                                                       | F72          |                                                                 |
| 9  | Chuqur aqliy zaiflik.                                                                                                                 | F73          |                                                                 |
| 10 | Shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari.                                                                                   | F20          |                                                                 |
| 11 | Tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlari kuzatiladigan psixik yoki aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar bo'lgan bolalar.     |              |                                                                 |
| 12 | Turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari.                                                              |              |                                                                 |
| 13 | Ko'r-kar-soqovlik.                                                                                                                    |              |                                                                 |

## Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo'ladigan tibbiy ko'rsatmalar (maktab, maktab-internatlar uchun)

| No                                                 | Kasallik nomi                                                       | Xalqaro Kasalliklar Tasnifi (XKT-10) | Tavsiya etilgan umumta'lim muassasasining turi                                                                                                                                                                                                                                             |
|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I. Umumta'lim muassasasi uchun tibbiy ko'rsatmalar |                                                                     |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| 1                                                  | Ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar:                                    |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | Psixologik rivojlanishning aralash spetsifik buzilishlari;          | F83                                  | Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi.                                                                                                                                                                                                  |
|                                                    | Bolalar autizmi.                                                    | F84.0                                | Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati.                                                                                                                                                  |
| 2                                                  | Aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar:                                    |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | Yengil darajadagi aqliy zaiflik;                                    | F70                                  | Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati.                                                                                                                                                  |
|                                                    | Mo'tadil aqliy zaiflik.                                             | F71                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| 3                                                  | Ko'rishida nuqsonlar:                                               |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | Ko'zi ojizlik (amovroz);                                            | N54.1                                | Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti                                                                                                                                                                                                      |
|                                                    | Tug'ma nuqsonlar:                                                   |                                      | Tibbiy ko'rsatmalar korreksiyadan so'ng bolaning ko'rish o'tkirligi 0,2 gacha bo'lganda ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatiga, ko'rish o'tkirligi 0,4 gacha bo'lganda boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasiga xulosa beriladi. |
|                                                    | Mikroftalm, Mikrokornea, Anoftalm;                                  | Q11                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | To'r pardasining rivojlanishidagi tug'ma nuqsonlar;                 |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | Retinoblastoma                                                      |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                    | Koloboma, preretinopatiya (chala tug'ilgan bolalar retinopatiyasi); | N47.2                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| Ko'rish nervining atrofiyasi;                      |                                                                     |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |

|   |                                                                                                                 |          |                                                                                                                                           |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | Ko'rish nervi disk va makulasining og'ir darajadagi gipoplaziyasi;                                              |          |                                                                                                                                           |
|   | Albinizm;                                                                                                       | E70.3    |                                                                                                                                           |
|   | Aniridiya;                                                                                                      | Q13.1    |                                                                                                                                           |
|   | Katarakta;                                                                                                      | N26.0    |                                                                                                                                           |
|   | Markaziy zonada to'liq yoki qisman xiralashish;                                                                 |          |                                                                                                                                           |
|   | Artifakiya;                                                                                                     | N27.0    |                                                                                                                                           |
|   | Afakiya (ko'z gavhari yo'qligi);                                                                                |          |                                                                                                                                           |
|   | Ko'z gavhari siljishi (joyi o'zgarishi);                                                                        |          |                                                                                                                                           |
|   | ko'z gavharining chiqishi;                                                                                      | N27.0    |                                                                                                                                           |
|   | Glaukoma (tug'ma, ikkilamchi);                                                                                  | N40 — 42 |                                                                                                                                           |
|   | Tug'ma miopiyaning yuqori darajasi;                                                                             | N52.1    |                                                                                                                                           |
|   | Gipermetropiyaning yuqori darajasi;                                                                             | N52.0    |                                                                                                                                           |
|   | To'r parda ajralishi, uning yorilishi yoki yirtilishlari;                                                       | N33      |                                                                                                                                           |
|   | Nistagm.                                                                                                        | N55      |                                                                                                                                           |
| 4 | Eshitishida nuqsonlar: N90.3                                                                                    |          |                                                                                                                                           |
|   | Koxlear implantatsiyadan keyin;                                                                                 |          |                                                                                                                                           |
|   | Neyrosensor eshitish zaifligining II darajasi (eshitishning 41 — 55 db gacha pasayishi), (quloqni protezlash);  |          |                                                                                                                                           |
|   | Neyrosensor eshitish zaifligining III darajasi (eshitishning 56 — 70 db gacha pasayishi), (quloqni protezlash); |          |                                                                                                                                           |
|   |                                                                                                                 |          | Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi.                                                 |
|   |                                                                                                                 |          | Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati. |

|   |                                                                                                                                                                      |       |                                                                                                                                                  |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | <p>Neyrosensor eshitish zaifligining IV darajasi (eshitishning 91 db gacha pasayishi);</p> <p>Karlik yoki kar-soqovlik (eshitishning 91 db dan ortiq pasayishi).</p> |       | <p>Boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga ega umumta'lim muassasasi, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati.</p>                     |
|   | Tayanch-harakat apparati nuqsonlari:                                                                                                                                 |       |                                                                                                                                                  |
| 6 | 3 va 4 darajali skolioz (tug'ma va orttirilgan);                                                                                                                     | M41   | <p>Boshlang'ich tayanch korreksion va inklyuziv ta'lim sinflariga ega umumta'lim muassasasi, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati.</p> |
|   | Ko'krak qafasining 3 va 4 darajali girdobsimon deformatsiyasi;                                                                                                       |       |                                                                                                                                                  |
|   | Ko'krak qafasining 3 va 4 darajali kilsimon deformatsiyasi;                                                                                                          |       |                                                                                                                                                  |
|   | 3 va 4 darajali kifoz;                                                                                                                                               | M40   |                                                                                                                                                  |
|   | Artrogripoz;                                                                                                                                                         | Q74.3 |                                                                                                                                                  |
|   | Bolalar serebral falaji (BSF) (GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 3-4 daraja) va boshqa nevrologik patologiyalar oqibatida ortopedik deformatsiyalari;                  | G80   |                                                                                                                                                  |
|   | Bosh va orqa miya kasalliklari oqibatida kelib chiquvchi ortopedik deformatsiyalar (istisno monoplegiyalar);                                                         |       |                                                                                                                                                  |
|   | Osteomiyelit asoratlari (jarrohlik muolajasidan keyingi holatlar);                                                                                                   | M86   |                                                                                                                                                  |
|   | Qo'l va oyoqlarda jarohatdan keyingi bo'g'imlar og'ir darajadagi kontrakturasi;                                                                                      |       |                                                                                                                                                  |
|   | Ortopediyadagi suyak skeletining tizim kasalliklari (axondroplaziya, disxondroplaziya, xondrodistrofiya);                                                            | M86   |                                                                                                                                                  |

|  |                                                                                                                                                                                    |       |  |
|--|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|--|
|  | Tug'ma son suyagi chiqishi (operativ davolashdan keyingi holat);                                                                                                                   | S73.0 |  |
|  | Aniqlanmagan oyoq-qo'l(lar) tug'ma anomaliyalari (tug'ma rivojlanish anomaliyasi oqibatida amputatsion cho'ltoqlik (tayanch-harakat funksional yetishmovchiligiga olib keladigan). | Q74.9 |  |

## II. "G'amxo'rlik" guruhi uchun tibbiy ko'rsatmalar

|   |                                                                                                                                       |                     |                                                |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|------------------------------------------------|
| 1 | GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 4-5 darajadagi Bolalar serebral falaji bo'lgan bolalarda yengil va mo'tadil darajadagi aqliy zaiflik; | G80+<br>F70/<br>F71 | Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati |
| 2 | Og'ir darajadagi aqliy zaiflik.                                                                                                       | F72                 |                                                |
| 3 | Chuqur aqliy zaiflik.                                                                                                                 | F73                 |                                                |
| 4 | Shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari.                                                                                   | F20                 |                                                |
| 5 | Tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlari kuzatiladigan psixik yoki aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar bo'lgan bolalar.     |                     |                                                |
| 6 | Turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari.                                                              |                     |                                                |
| 7 | Ko'r-kar-soqovlik.                                                                                                                    |                     |                                                |

## Kunduzgi parvarish xizmatiga psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo'ladigan tibbiy ko'rsatmalar

| No | Kasallik nomi                                                                                                                   | Xalqaro kasalliklar tasnifi (XKT-10) |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|
| 1  | GMFCS klassifikatsiyasiga ko'ra 4-5 darajadagi Bolalar serebral falaji (G80) bo'lgan bolalarda yengil darajadagi aqliy zaiflik. | G80+F70                              |
| 2  | Mo'tadil aqliy zaiflik.                                                                                                         | F71                                  |
| 3  | Og'ir darajadagi aqliy zaiflik.                                                                                                 | F72                                  |
| 4  | Chuqur aqliy zaiflik.                                                                                                           | F73                                  |
| 5  | Ko'r-kar-soqovlik.                                                                                                              |                                      |

## Inklyuziv ta'limning mazmuni, maqsadi va tamoyillari

**Inklyuziv ta'limning maqsadi** - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglar va yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)larni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

### **Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:**

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

### **Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:**

inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash;

inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni byudjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish;

inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi.

**Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:**

**Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi** (*Ushbu tamoyil inklyuziv ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida davlat va jamiyat tomonidan tan olinishi hamda qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi. Bu tamoyil alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.*)

**Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili** (*Inklyuziv ta'lim har bir bola uchun, uning jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy xususiyatlaridan qat'iy nazar, ochiq bo'lishi lozim. Ushbu tamoyil ta'limda kamsitishning oldini olib, teng imkoniyatlar asosida ishtirokni ta'minlaydi.*)

**Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili** (*Inklyuziv ta'lim jarayoni ta'lim muassasalari, oila, tibbiyot va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslanadi. Ushbu bog'lanish bolaning ta'lim va tarbiya jarayonida kompleks qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.*)

**Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili** (*Inklyuziv ta'lim markazlashgan qat'iy modelga emas, balki ta'lim muassasalarining mustaqilligi va moslashuvchanligiga tayanadi. Bu tamoyil joylarda ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqib qarorlar qabul qilish imkonini beradi.*)

**Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili** (*Mazkur tamoyil ta'lim, tarbiya, psixologik va ijtimoiy yordamni o'zaro uyg'unlikda tashkil etishni nazarda tutadi. Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi.*)

**Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili** (*Ta'lim mazmuni, metodlari va shakllari bolaning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtiriladi. Bu tamoyil har bir bolaning rivojlanish sur'ati va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.*)

**Malakaviylik tamoyili** (*Inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun pedagoglar va mutaxassislarining kasbiy malakasi yuqori bo'lishi zarur. Ushbu tamoyil uzluksiz kasbiy rivojlanish va maxsus tayyorgarlikni ta'minlashni talab etadi.*)

## Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda inklyuziv yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari

Inklyuziv ta'lim yondashuvi maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya hisoblanadi.

Ushbu yondashuv barcha bolalarning, jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ham umumiy ta'lim muhitida teng, xavfsiz va samarali ta'lim olishini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limda bolaning jismoniy, aqliy yoki ruhiy holati emas, balki uning rivojlanish imkoniyatlari va individual ehtiyojlari asosiy mezon sifatida e'tiborga olinadi.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib, inklyuziv yondashuv aynan shu davrda bolaning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichda inklyuziv ta'limning asosiy vazifasi bolani jamoadan ajratmasdan, tengdoshlar bilan birgalikda faoliyat olib borishiga sharoit yaratishdan iborat bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda o'yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Inklyuziv muhitda o'yinlar bolalarning bir-birini tushunishi, qabul qilishi va hamkorlikda harakat qilishini rivojlantiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumiy guruh faoliyatiga jalb etiladi, zarur hollarda esa o'yin qoidalari, vazifalar va materiallar moslashtiriladi. Bu jarayonda pedagog bolaning qobiliyatlariga tayangan holda individual yondashuvni qo'llaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuv bolaning emotsional xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Bola o'zini qabul qilingan, himoyalangan va qadrlangan his qilishi lozim bo'ladi. Bu esa zo'ravonlik, kamsitish va chetlashtirishning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagoglar bolalar o'rtasida ijobiy muloqotni rag'batlantiradi, empatiya va mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantiradi.

Umumiy o'rta ta'limda inklyuziv yondashuv bolaning bilim olish, o'z fikrini erkin ifodalash va jamiyatda faol ishtirok etishiga yo'naltiriladi. Bu ta'lim jarayoni murakkablashgani sababli inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi.

Inklyuziv sinflarda ta'lim mazmuni va metodlari o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtiriladi. Topshiriqlar, baholash mezonlari va o'quv materiallari differensial yondashuv asosida ishlab chiqiladi. Zarur hollarda individual ta'lim dasturlari tuziladi va ularni amalga oshirishda maxsus pedagoglar, assistentlar, psixologlar hamda tyutorlar ishtirok etadi.

Inklyuziv yondashuv umumiy o'rta ta'limda faqat akademik natijalarga emas, balki o'quvchining ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham katta ahamiyat beradi. O'quvchilarda o'zaro hurmat, hamkorlik, mas'uliyat va muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu esa zo'ravonlik va nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Inklyuziv yondashuvning muhim jihatlaridan biri - ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning hamkorligidir. Pedagoglar, maxsus pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar birgalikda ishlashi bolaning rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Ota-onalar bilan doimiy muloqot olib borish bolaning ehtiyojlarini chuqurroq anglash va individual yordam choralari belgilashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim muhitining asosiy xususiyatlaridan biri - xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratishdir. Bunday muhitda har qanday zo'ravonlik, kamsitish va salbiy munosabatlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllantiriladi. Bolalarda o'z huquqlarini bilish, boshqalarni hurmat qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda inklyuziv yondashuv - bu faqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sharoit yaratish emas, balki barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Ushbu yondashuv orqali bolalar nafaqat bilim oladi, balki jamiyatda faol, mas'uliyatli va mehribon shaxs sifatida shakllanadi.

## Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish jihatlari

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi ularning kamoloti, ta'lim jarayoniga moslashuvi hamda jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur bolalar rivojlanishida kuzatiladigan ayrim o'ziga xosliklar biologik omillar, muhit ta'siri hamda ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular doimo tizimli pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda psixologik rivojlanish ko'pincha notekis xarakterga ega bo'ladi. Ba'zi psixik jarayonlar, masalan, idrok, e'tibor, xotira yoki tafakkur sekinroq shakllanishi mumkin, biroq bu holat bolaning umumiy salohiyatini inkor etmaydi. Aksincha, to'g'ri yondashuv va moslashtirilgan ta'lim muhitida ushbu bolalarning kuchli tomonlari namoyon bo'lishi mumkin. Bunday bolalarda emotsional holatlar nisbatan sezgir bo'lib, ular atrofdagilarning munosabatiga juda ta'sirchan bo'ladi.

Rad etilish, befarqlik yoki salbiy munosabat bolada xavotir, o'ziga ishonchsizlik, o'z-o'zini past baholash holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli psixologik rivojlanishda bolaning o'zini xavfsiz, qabul qilingan va qadrlangan his qilishi muhim omil hisoblanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda o'z-o'zini anglash jarayoni ham o'ziga xos kechadi. Bola o'zini tengdoshlari bilan taqqoslash orqali baholaydi va agar ta'lim muhitida yetarli qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, u o'z imkoniyatlarini past baholashga moyil bo'lishi mumkin. Shu bois pedagog va mutaxassislar bolaning muvaffaqiyatlarini e'tirof etib, uni rag'batlantirish orqali ijobiy o'zini anglashni shakllantirishi zarur.

Ijtimoiy rivojlanish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun eng muhim va shu bilan birga eng nozik sohalardan biridir. Ushbu bolalar ko'pincha tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar muloqot ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi, o'z his-tuyg'ularini ifodalashdagi murakkabliklar yoki ijtimoiy signallarni to'g'ri anglay olmaslik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bunday bolalar guruhda o'z o'rnini topishda qiynalishi, ba'zan chetlanish yoki yolg'izlikni his qilishi ehtimoli mavjud. Agar bu holatlar vaqtida aniqlanmasa va bartaraf etilmasa, bolada ijtimoiy passivlik, qochish xulq-atvori yoki aksincha, agressiv reaksiyalar shakllanishi mumkin. Shu sababli bolani jamoaga bosqichma-bosqich jalb qilish va ijobiy ijtimoiy tajriba yaratish muhimdir.

Inklyuziv muhitda ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratilganda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar hamkorlik qilish, navbat kutish, o'zaro yordam ko'rsatish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini egallaydi. Bu jarayonda tengdoshlarning ijobiy namunasi va pedagogning vositachilik roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida oila muhim tayanch omil hisoblanadi. Ota-onaning bolaning holatini qabul qilishi, uni qo'llab-quvvatlashi va real imkoniyatlariga mos kutishlari bolaning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik esa bolaga nisbatan yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Ta'lim muhitida pedagoglar, psixologlar va maxsus mutaxassislar tomonidan ko'rsatiladigan tizimli yordam bolaning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi. Moslashtirilgan mashg'ulotlar, guruhli faoliyatlar va emotsional qo'llab-quvvatlash bolaning jamiyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi murakkab, ammo to'g'ri tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali kechadigan jarayondir. Ushbu bolalar uchun qulay, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish ularning salohiyatini ochish, ijtimoiy faolligini oshirish va zo'ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida psixolog har bir bolaning psixik salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan tizimli faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu bosqichda bolalarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvorining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologning faoliyati bolaning rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni erta aniqlash, oldini olish va ularni bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi bolalar uchun xavfsiz, mehrli va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda faol ishtirok etadi. U bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuzatadi, nizoli holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni olib boradi. Shuningdek, bolalarda bir-biriga nisbatan hurmat, mehr-oqibat va empatiya tuyg'ularini rivojlantirish orqali zo'ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Psixolog tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning emotsional xavfsizligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlanish va ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda tarbiyachilar, maxsus pedagoglar hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydi. U bolaning yoshiga xos psixologik xususiyatlari, rivojlanish sur'ati, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan yondashuvni shakllantiradi. Bu jarayon oilada tarbiyalanayotgan yoki inklyuziv guruhlarda ta'lim olayotgan bolalar uchun qulay va samarali rivojlanish muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida psixolog bolalar bilan turli yo'nalishlarda jamoaviy rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etadi. Ushbu mashg'ulotlar asosan o'yin, harakat va ijodiy faoliyat orqali olib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda muloqot ko'nikmalari, emotsiyalarni ifodalash, o'zini anglash, navbat kutish va jamoada harakat qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Guruhli mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirib, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi bolalarni doimiy ravishda psixologik va pedagogik jihatdan kuzatib boradi. Kuzatuv, suhbat va rivojlanishni baholash natijalari asosida boladagi ehtimoliy qiyinchiliklar erta aniqlanadi. Shu asosda ota-onalarga bolaning emotsional rivojlanishi, xulq-atvori va tarbiyasiga oid amaliy tavsiyalar beriladi. Ota-onalar bilan muntazam va ishonchli hamkorlik bolaning psixik barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomga muvofiq maktab psixologi har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash, maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

**maktabda sog'lom ijtimoiy psixologik muhit yaratish** (Maktab psixologi ta'lim muassasasida ijobiy, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda faol ishtirok etadi. U o'quvchilar, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qiladi, nizoli vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni olib boradi. Shuningdek, zo'ravonlik, kamsitish va psixologik bosim holatlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali o'quvchilarning emotsional xavfsizligini ta'minlaydi);

**o'quvchini individual ta'lim** (oilada va inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berish) dasturlarini tuzishda ishtirok etish (Maktab psixologi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda pedagoglar va mutaxassislar bilan hamkorlikda faol qatnashadi. U bolaning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni shakllantirishga ko'maklashadi. Bu jarayon oilada ta'lim olish yoki inklyuziv ta'lim sharoitida o'qiyotgan bolalar uchun mos va samarali ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi);

**o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish** (Maktab psixologi o'quvchilar bilan turli yo'nalishlarda guruhli mashg'ulotlar olib boradi. Ushbu mashg'ulotlar orqali bolalarda muloqot ko'nikmalari, emotsional boshqaruv, empatiya, o'zini anglash va jamoada ishlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Guruhli faoliyatlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirib, o'zaro hurmat va

*hamkorlik muhitini shakllantirishga yordam beradi);*

**o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish** (*Maktab psixologi o'quvchilarni doimiy ravishda psixologik va pedagogik jihatdan o'rganib boradi. Kuzatuv, suhbat va diagnostika natijalari asosida bolaning rivojlanishidagi muammolar yoki qiyinchiliklar erta aniqlanadi. Shu asosda ota-onalarga farzand tarbiyasi, emotsional qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik bolaning psixik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi).*

## II BOB. BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK: TURLARI VA XAVF OMILLARI

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va tasnifi (Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling))

**Bolalarga nisbatan zo'ravonlik** — bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) deb e'tirof etiladi.<sup>{1}</sup>

Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'ravonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanishi hamda qonun bilan ta'qib qilinishishi O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida" qonuni bilan belgilab qo'yilgan (Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 31-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 15-avgustda ma'qullangan).

**Bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik** — bolalarga og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatmaslik hamda zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog'lig'i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta'sir o'tkazish.



<sup>{1}</sup> — <https://lex.uz/docs/-7219502>


Rasmlar ([https://t.me/ijtimoiyhimoya\\_agentligi](https://t.me/ijtimoiyhimoya_agentligi)) rasmiy telegram kanalidan olingan.



**Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik** — bolaga nisbatan shahvoniy harakatlarni sodir etish, jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan har qanday harakatlar tushuniladi.



**Bolalarga nisbatan ruhiy zo'ravonlik** — bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'ravonlik shakli, shu jumladan zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik).



**G'amxo'rlik ko'rsatmaslik** — zarur imkoniyatlar, bilimlar va ko'nikmalarga, shu jumladan buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta'lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona (ular o'rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini qanoatlantirmaslik bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi buzilishiga olib kelishi.

**Bolalarni ekspluatatsiya qilish** — boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishni qo'llagan holda bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo'lib yashash, muayyan diniy ta'lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta'lim olishiga tahdid tug'dirishi.

**Ta'qib etish (bulling)** — bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo'yish (boykot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo'yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o'ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta'sir ko'rsatish.

**Bolaning asosiy ehtiyojlari** — bolaning to'laqonli rivojlanishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi, xavfsizlik, ta'lim olish, katta yoshdagilarning g'amxo'rliqi, ijtimoiy aloqalar o'rnatish, hayotiy ko'nikmalari rivojlanishi va o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini qamrab oladigan hayotiy muhim ehtiyojlar majmui.

Davlat bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun tegishli huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko'radi, shu jumladan bolani va uning oilasini qo'llab-quvvatlaydi hamda bolalarga nisbatan va bolalar o'rtasidagi zo'ravonlikning barcha shakllarini aniqlash hamda ularning oldini olish, bolalarga nisbatan zo'ravonlik hollari to'g'risida xabardor qilish, ushbu faktlarni tekshirish, aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ta'minlash, zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish va ularning huquqlarini tiklash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish uchun zarur bo'lgan samarali mexanizmlarni yaratadi.

**Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

- qonuniylik;
- insonparvarlik;
- bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlash;
- bolalarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash;
- bolalarning tahqirlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning o'z manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilinishida ishtirok etishi;
- bolalarga nisbatan zo'ravonlikka bo'lgan murosasizlik;
- bolalarga nisbatan zo'ravonlik uchun javobgarlikning muqarrarligi;
- zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini tiklash.

Hozirgi vaqtgacha inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) muammosi kam o'rganilgan. Chet ellik D.Leyn va E.Miller "Zo'ravonlik yoki bulling deganda bir yoki bir guruh bolalar tomonidan boshqa

bolaga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ongli zo'ravonlikning uzoq davom etadigan jarayoni tushuniladi" deb ta'riflashgan.

Ya'ni, zo'ravonlik asosan uyushgan bolalar jamoalariga, birinchi navbatda maktabga xos bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, ota-onalar farzandining turli xildagi ko'rinishlaridan xavotirlanadi.

#### **Bunda:**

tashqi ko'rinishning o'ziga xos xususiyatlari (noodatiy sochlar, g'ayrioddiy ovoz tembri, aurikullarning maxsus shakli, burun, bosh, tana vazni va boshqalar);

rivojlanmagan ijtimoiy ko'nikmalar (do'stlarning yetishmasligi, jamoada yashash tajribasining yetishmasligi) va boshqa holatlarda bo'lishi mumkin.

#### **Inklyuziv ta'lim sinfida bezorilik xavfi bir necha omillar bilan belgilanishi mumkin:**

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda o'ziga xos jismoniy va psixologik xususiyatlarning mavjudligi ya'ni, bunday bolalar tana va yuz tuzilishida ko'rinadigan kamchiliklarga ega bo'lish holatlari;

oyoq-qo'llarning anomaliyalari, bosh suyagi tuzilishidagi nuqsonlar, yuz xususiyatlarining shakli o'zgarishi, o'ziga xos yurish, nutqning buzilishi va boshqalar;

mavjud nuqsonlarni tuzatishning qo'shimcha texnik vositalari ovoz yetkazib beruvchi yoki ovozni mustahkamlovchi uskunalar, ko'rishni to'g'rilash moslamalari, nogironlar aravachasi, va boshqalar;

xulq-atvordagi o'zgarishlar giperaktivlik, bezovtalik, passivlik, sustlik, ziddiyat va boshqalar;

shaxsiy xususiyatlar (zaiflik, xavotir, uyatchanlik, o'ziga ishonchsizlik, to'g'ridan-to'g'ri, ziddiyat, izolyatsiya va boshqalar;

o'rganish xususiyatlari aqlning pasayishi, yozish, o'qish, hisoblashning buzilishi va boshqalar.

Albatta, yuqoridagi xususiyatlarning mavjudligi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning maktabdagi zo'ravonlik holatida jabrlanuvchining rolini egallashi uchun xavf omilidir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan muloqot qilish uchun boshqa (sog'lom) bolalarning psixologik tayyorgarligi yo'qligi ularning ijtimoiy moslashuviga to'sqinlik qiladi hamda tengdoshlar o'rtasida tushunmovchilik, chetlashtirish va bezorilik holatlarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan inklyuziv ta'lim sinflariga jalb etish, ularni internat muassasalarida ta'lim bilan qamrab olish hamda rivojlanishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarni segregatsion (lotincha: segregacio – ajratish) ta'lim asosida uy sharoitida o'qitish bo'yicha mavjud cheklangan tajriba normal rivojlanayotgan

bolalarda “maxsus” ehtiyojli tengdoshlari bilan muloqot qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmasligiga, natijada ularning psixologik jihatdan muloqotga tayyor emasligiga olib kelmoqda.

Undan tashqari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani jamiyatdan segregatsiya qilish natijasida nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar orasida maxsus psixologik bilimlarning yetishmasligi yuzaga keladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda aqliy qobiliyatlar, shaxsiy rivojlanish xususiyatlari hamda jamoada shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga oid o'ziga xos qiyinchiliklar mavjudligini inobatga olgan holda, o'qituvchilarning ushbu o'quvchilarning individual xususiyatlari to'g'risida yetarli bilim va tasavvurga ega emasligi maktab muhitida bunday bolalarning ta'qib qilinishi holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

**N.A.Polshaning** ta'kidlashicha, maktabning pedagogik jamoasi ayrim hollarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlariga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita tarzda jalb etilishi mumkin bo'lib, bu holat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan beparvolik ko'rsatish, ularga psixologik bosim o'tkazish, uyushgan ta'qib jarayonlariga aralashib ketish yoki hatto bunday xatti-harakatlarni bilvosita rag'batlantirishda namoyon bo'lishi mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktab muhitida turli xil zo'ravonlik holatlaridan himoya qilish va ularning oldini olish jarayonida qator muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning mavjud psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan uslubiy ishlanmalarning inklyuziv sinf o'qituvchilari uchun yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ushbu muammolarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli inklyuziv ta'lim sinflarida ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha zarur pedagogik-psixologik bilim va kompetensiyalarga yetarli darajada emasligi sinf, maktab miqyosida kamsitish, chetlashtirish yoki zo'ravonlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday salbiy holatlarning oldini olishda quyidagi muammolar ham muhim ahamiyat kasb etadi:

inklyuziv ta'lim muhitida sog'lom o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan tengdoshlari bilan muloqot qilish, ularni qabul qilish va tushunishga oid ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining yetarli emasligi;

maktab ma'muriyati, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim masalalarida samarali hamkorlik mexanizmlarining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;

zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash, monitoring qilish va ularga tezkor pedagogik-psixologik choralar ko'rishga qaratilgan tizimli yondashuvning yetishmasligi. Shu bois, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlarini optimallashtirish, o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhitini shakllantirish masalalarini kompleks tarzda ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

Psixologik va pedagogik bilimlarning yetishmasligi ota-onalar o'zlarining "sog'lom" bolasiga tengdoshi bilan munosabatlarni o'rnatish masalasida maslahat berishni qiyinlashtirishiga olib keladi, natijada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani e'tiborsiz qoldirishi yoki ularga nisbatan tajovuzlik ko'rsatishini tavsiya qilishi mumkin bo'lib qoladi. Aksincha ularga nisbatan g'amxo'rlik munosabatlarini o'rnatishni tushuntiradi.

Ota-onalarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sinf jamoasining to'liq a'zolari sifatida qabul qilishga tayyor emasligi natijasida sinfda o'quvchilar o'rtasida ham turli xil kelishmovchiliklar, kamsitilishlar va zo'ravonlik holatlari yuzaga kelish holatlari kuzatiladi.

**S.O.Splasgalova** va **G.G.Zakning** ta'kidlashicha, "Sog'lom" bolalarning ota-onalari rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar (ayniqsa aqli zaif bo'lgan bolalar) o'qituvchilar va bolalarni bezovta qiladi, chalg'itadi, bu esa butun sinfning bilim darajasini pasaytiradi" deb hisoblashgan.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim sinflarida zo'ravonlik xavfi omillarini tahlil qilish hali yetarlicha o'rganilmagan, shuning uchun u tizimli yondashuvni talab qiladi.

Keng qamrovli tadqiqotni o'z ichiga oladi. Zo'ravonlik yoki bulling holatlarini o'z vaqtida oldini olish uchun qilingan harakat tezda hal qilinishi, va o'zidan kichik iz qoldirishi mumkin.

Uzoq davom etadigan travmadan keyingi stressning buzilishi, aqliy va jismoniy salomatlikning yomonlashishi, ta'lim va kasbiy faoliyatning pasayishiga, aloqa qiyinchiliklari, noto'g'ri ishlash, xatti-harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish kabi o'chmas iz qoldiradi.

## Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar zo'ravonlikka ko'proq duch kelishining sabablari

Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki bulling holati, tizimli va murakkab hodisa hisoblanib, bu bolalarni o'qitishning inklyuziv shaklining paydo bo'lishi chuqur tahlilni talab qiladigan yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Zo'ravonlik asosan uyushgan bolalar jamoalariga, avvalo maktab muhitiga xos bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, maktab ko'pincha bolalar tomonidan oilaviy muhitda to'plangan salbiy emotsional holatlar va impulsni namoyon etish uchun qulay ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Maktabda zo'ravonlikning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi yetakchi omillar qatoriga shaxsiy, oilaviy, atrof-muhitga oid vaziyatli hamda ijtimoiy omillarni kiritish mumkin.

Ta'lim muassasasida zo'ravonlikning namoyon bo'lishiga olib keladigan qo'shimcha omillardan biri, ayniqsa maktab muhitida boshqa bolalardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, o'quv jarayonida odatiy yondashuvlarni buzadigan bola paydo bo'lganda yuzaga keladi. Bunday holat ko'pincha pedagogik jarayonning moslashuvchan emasligi, ayrim o'qituvchilarning inklyuziv ta'limni amalga oshirish bo'yicha yetarli kompetensiyaga ega emasligi hamda mazkur muammoni hal etishga nisbatan loqayd yoki passiv munosabati bilan izohlanadi.

Hodisalarning o'ziga xos jihatlarini yetarli darajada bilmaslik natijasida kattalar ham, o'quvchilarning o'zlari ham beixtiyor ta'qib va zo'ravonlik holatlarining qo'zg'alishiga sabab bo'lishi mumkin. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ko'pincha nafaqat tengdoshlari, balki kattalar tomonidan ham to'liq qabul qilinmaslik, beparvolik yoki psixologik bosimga duch keladi. Kattalarning bunday munosabati ushbu toifadagi bolalarni yanada zaiflashtiradi va zo'ravonlikning muhim xususiyati — uning jamoaviy xarakterga ega ekanligini yana bir birtasdiqlaydi.

Zo'ravonlik jarayonida jamoaning barcha a'zolari bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, ular faol ishtirokchilar (tajovuzkor yoki jabrlanuvchi) bo'lmasalar ham, kuzatuvchi sifatida sodir bo'layotgan holatlarga befarq munosabat bildiradi. Bu esa zo'ravonlikning davom etishiga sharoit yaratadi.

Maktabda zo'ravonlik yoki bezorilik holati yuz berganda, maktab jamoasining har bir a'zosi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan zarur choralar quyidagilardan iborat:

avvalo, jabrlanuvchi o'quvchini himoya qilish, ya'ni tajovuzkorning zo'ravonlikka yo'naltirilgan harakatlarini zudlik bilan to'xtatish;

zo'ravonlik sodir etgan o'quvchi bilan ishlash jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan jabrlanuvchi bolaning holati, uning mazkur vaziyatda kechirayotgan psixologik holati va hissiy kechinmalariga alohida e'tibor qaratilishi;

shu bilan birga, bezorilik qilgan o'quvchiga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy choralar ko'rilishi lozim.

Mazkur yondashuvning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

guvoh bo'layotgan o'quvchilarning e'tiborini tajovuzkorning xatti-harakatlaridan jabrlanuvchining holatiga yo'naltirish orqali uning ijtimoiy-psixologik pozitsiyasi mustahkamlanadi;

vaqt o'tishi bilan rollar transformatsiyasi yuz beradi, ya'ni dastlab tajovuzkorni qo'llab-quvvatlagan o'quvchilar neytral yoki "zo'ravonlikka qarshi" pozitsiyani egallay boshlaydi;

jabrlanuvchiga e'tibor qaratish tajovuzkorning xatti-harakatlari oqibatsiz qoladi degani emas, aksincha, bu holatda ta'sir ko'rsatishning asosiy nuqtasi jazolashdan ko'ra, ijtimoiy-pedagogik ta'sirga yo'naltiriladi.

Mazkur holat yuzasidan sinf rahbari, maktab psixologi, maxsus pedagog, assistent o'qituvchi, tyutor yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari zudlik bilan xabardor qilinishi lozim;

Shuningdek, maktab ma'muriyati hamda jabrlanuvchi va tajovuzkor o'quvchilarning ota-onalarini vaziyatdan xabardor qilish muhim hisoblanadi.

Maktabning barcha pedagogik jamoasi, shuningdek, ota-onalar va o'quvchilar, agar ular guvoh bo'layotgan zo'ravonlik holatlari yuz bersa, ushbu vaziyatga samarali aralashishga tayyor bo'lishlari zarur.

Zo'ravonlik ishtirokchilari - tajovuzkor va jabrlanuvchi bilan alohida uchrashuvlar o'tkazilishi, ularning holati va sabablarini aniqlash muhim hisoblanadi. Shuningdek, maktab jamoasi har bir epizod yuzasidan ota-onalarni xabardor qilishi va tegishli choralar ko'rishga jalb qilishi lozim.

O'qituvchilar uchun muhim jihatlardan biri shundan iboratki, ular o'z nuqtai nazaridan "muvaffaqiyatli" yoki yuqori baholangan ("a'lochi") o'quvchilarga e'tiborni faqat ijobiy tomondan qaratishadi. Biroq, bunday o'quvchilar ham ba'zida bezorilik qurboni bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'p hollarda "a'lochi" deb hisoblangan o'quvchilar muammoli emas, deb qaraladi va ularni atrofida gilar ham hurmat bilan qabul qiladi. Shu bilan birga, umumiy ishlash darajasi past bo'lgan maktablarda yuqori natijalarga ega bo'lgan o'quvchilar ham ba'zida zo'ravonlik hujumlarining nishoniga aylanishi hollari uchra b turadi.

## **Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar zo'ravonlikka ko'proq duch kelishining sabab va omillari:**

**1. Shaxsiy psixologik va rivojlanish xususiyatlari.** Bolalar ko'pincha kommunikativ, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularning tengdoshlari bilan muloqotida noaniqlik, noto'g'ri tushunish yoki hissiy reaksiya ortiqcha bo'lishi mumkin, bu esa ularni maktabdagi zo'ravonlik holatlariga nisbatan sezgir qiladi.

Masalan, autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalar yoki nutq qobiliyati cheklangan o'quvchilar boshqa bolalar tomonidan noto'g'ri tushunilishi yoki izolyatsiya qilinishi mumkin.

**2. Pedagogik kompetensiyaning yetarli emasligi.** Inklyuziv sinflarda bolalar bilan ishlash bo'yicha o'qituvchilarning tayyorgarligi yetarli darajada bo'lmasligi, ularning individual xususiyatlarini inobatga olmagan holda dars jarayonida nazorat va ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi zo'ravonlikning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

O'qituvchilar ba'zan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni to'g'ri baholay olmasligi yoki ularni sinfdagi ijtimoiy muhitga moslashtira olmasligi sababli tengdoshlari tomonidan ajratilish xavfi ortadi.

**3. Tengdoshlarning psixologik tayyorgarligining yetishmasligi.** Sog'lom bolalar ba'zida alohida xususiyatga ega bo'lgan tengdoshlari bilan muloqot qilishni bilmaydi. Ularning zo'ravonlikka moyilligi ko'pincha noaniqlik, tushunmovchilik yoki qiziqishning noto'g'ri yo'naltirilishidan kelib chiqadi.

O'quvchilar orasidagi noto'g'ri stereotiplar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan beparvolik yoki e'tiborsizlik zo'ravonlikni qo'zg'atadi.

**4. Oilaviy va ijtimoiy muhit.** Ba'zi bolalar oilaviy qo'llab-quvvatlash yoki psixologik tayyorgarlik yetishmasligi sababli maktabda o'zini himoyasiz his qiladi.

Uyda yoki atrof-muhitda to'plangan salbiy emotsiyalar va stresslar ularni maktabdagi zo'ravonlikka nisbatan sezgir qiladi.

**5. Maktab va pedagogik muhitdagi omillar.** Inklyuziv sinflarda sinf rahbari va maktab direktori tomonidan moslashuvchan, psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi strategiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ijtimoiy himoyasiz qoladi.

Zo'ravonlikni monitoring qilish, muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlari mavjud emasligi xavfni oshiradi.

**6. Stereotiplar va ijtimoiy stigmalash.** Ba'zi boshqa (sog'lom) bolalar va hatto o'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni "zaif" yoki "muammoli" deb qabul qiladi, bu esa ularni ijtimoiy ajratilish va ta'qib qurboniga aylanishiga olib keladi.

Jamoadi o'zaro hurmat va inklyuziv muhit yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, zo'ravonlik holatlari tez-tez takrorlanadi.

7. Shaxsiy xavf omillari. O'quvchilarning xulq-atvori, stressga chidamliligi, hissiy boshqaruv ko'nikmalari pastligi kabi shaxsiy omillar ham bolalarni zo'ravonlikka nisbatan sezgir qiladi.

Maktab psixologi zo'ravonlik qurboni bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola bilan ishlashda yakkama-yakka aloqa o'rnatish bosqichidan boshlaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola ko'pincha nima bo'layotgani haqida gapirishga tayyor bo'lmaydi. Bu uning tajovuzkorlar tomonidan qo'rqitilishi, shuningdek, kattalarning aralashuvi vaziyatni yanada yomonlashtirishi mumkin degan xavotir natijasidir.

Kutilmagan yoki doimiy psixologik travma tufayli bola shok holatiga tushishi, o'zini chegaralashi, o'zini aybli va nuqsonli his qilishi, shuningdek, "yomon" xatti-harakati uchun jazo kutishi mumkin.

Maktab psixologi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagi prinsiplarga amal qilishi lozim:

- qo'rquvni yengishga yordam berish – bolani tinchlantirish, mavjud vaziyatga nisbatan his-tuyg'ularini boshqarishga ko'maklashish;

- ahvolni baholash – bolaning psixologik holati keskin bo'lsa, darhol mos psixologik yordam ko'rsatish;

- disorientatsiya (dezorientatsiya - bu insonning o'zini vaqt, makon yoki shaxs sifatida his qilishni yo'qotishi, atrof-muhitni anglay olmaslik holati) va javob berish qiyinchiliklarini hisobga olish - savollarga javob berishdagi qiyinchiliklar tabiiy ekanligini tushunish va qo'llab-quvvatlash;

- voqealarni tushuntirish - sodir bo'lgan holat boshqa ishtirokchilarga nisbatan "sotqinlik" yoki "xiyonat" emasligini tushuntirish;

- uyalish va kamsitilish xavfini hisobga olish - bola sodir bo'lgan voqeani o'zining ijtimoiy muvaffaqiyatsizligi deb qabul qilmasligi uchun izoh berish;

- ko'proq gapirishga imkon berish - bola birinchi bosqichda faqat tinglovchi rolini tanlashi mumkin

- psixolog diqqat bilan tinglayotganini bildirishi;

- his-tuyg'ularni aniqlash - bola qo'rquv, uyat, nochorlik, g'azab yoki qasos olish istagini his qilishi tabiiy ekanligini tushuntirish;

- ochiq savollardan foydalanish - uchinchi shaxs shaklida so'rash: "Menga maktabdagi bezorilik haqida gapirib bering", "Maktabda kamsitilgan bolalar bilan qanday holatlar sodir bo'lishi mumkin?";

- muammoni hal qilishga tayyorgarlik - bola yuzaga kelgan muammoni o'zi hal qilishga urinishi tabiiy, psixolog bu jarayonda qo'llab-quvvatlaydi.

Bunday ishlarning maqsadi bolaning o'zini ishonchli his qilishi va vaziyatni yaxshilash bo'yicha imkoniyatlarni darhol ko'rishga yordam berishdir. Yechimga yo'naltirilgan yondashuv maktab psixologi uchun eng mos metod hisoblanadi, chunki u qisqa muddatli samaraga ega va birinchi uchrashuvda ham bolaning holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Suhbatni boshlashda bola uchun qiziqarli va unga hurmat ko'rsatadigan mavzularni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uning ishonchni oshirishiga yordam beradi va keyinchalik kamsitilish yoki zo'ravonlik holatlarini muhokama qilishga, vaziyatni tahlil qilishga tayyorlaydi.

## Ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning namoyon bo'lish shakllari

Ta'lim muassasalarida zo'ravonlik (school violence) - bu o'quvchilar, pedagoglar yoki boshqa ta'lim jarayoni ishtirokchilariga nisbatan jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki institutsional zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) zo'ravonlikni "Boshqa shaxsga nisbatan qasddan jismoniy kuch yoki hokimiyatdan foydalanish natijasida real yoki potensial zarar yetkazish" deb ta'riflaydi.<sup>2</sup> Ta'lim muassasalarida zo'ravonlik bolalarning ruhiy salomatligi, akademik yutuqlari va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy zo'ravonlik shaxsga bevosita jismoniy zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Namoyon bo'lish shakllari:

urish, tepish, itarish;

sochidan tortish, turtkilash;

buyumlar bilan zarba berish;

majburan ushlab turish yoki yopiq joyga qamash;

shaxsiy buyumlarni tortib olish yoki sindirish.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, jismoniy zo'ravonlik ko'pincha kuchlar tengsizligi mavjud bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keladi (Olweus, 1993).

Psixologik zo'ravonlik - eng keng tarqalgan, biroq ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan zo'ravonlik shaklidir.

Ko'rinishlari:

haqoratlash, masxaralash, laqab qo'yish;

tahdid qilish, qo'rqitish;

doimiy tanqid va mensimaslik;

uyaltirish, obro'sizlantirish;

ayblash, kinoya va istehzo.

Bu turdagi zo'ravonlik bolalarda o'z-o'zini past baholash, tashvish va depressiv holatlarga olib kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan (APA, 2020).

Og'zaki zo'ravonlik psixologik zo'ravonlikning alohida ko'rinishi bo'lib, til orqali amalga oshiriladi.

Namoyon bo'lish shakllari:

qichqirish, baqirish;

haqoratli so'zlar ishlatish;

milliy, diniy yoki jismoniy xususiyatlarni kamsitish;

doimiy masxara qilish.

Og'zaki zo'ravonlik uzoq muddatli ruhiy jarohat keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy zo'ravonlik shaxsning ijtimoiy munosabatlariga zarar yetkazishga qaratilgan.

{2} — <https://www.who.int/groups/violence-prevention-alliance/approach?utm>

Shakllari:

jamoaviy chetlatish;  
do'stlaridan ajratish;  
g'iybat va mish-mish tarqatish;  
jamoaviy masxara.

Bu holat o'smirlik davrida ayniqsa xavfli hisoblanadi (UNICEF, 2021).

Kiberzo'ravonlik axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladi va maktabdan tashqarida ham davom etishi mumkin.

Ko'rinishlari:

ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli izohlar;  
shaxsiy yozishmalarni tarqatish;  
soxta akkauntlar orqali tahqirlash;  
ruxsatsiz foto-video joylash.

Ilmiy tadqiqotlar kiberzo'ravonlikning ta'siri doimiy va nazoratsiz bo'lishi bilan izohlanishini ko'rsatadi.

Jinsiy zo'ravonlik bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuzdir.

Namoyon bo'lish shakllari:

jinsiy mazmundagi hazillar;  
nojo'ya teginishlar;  
jinsiy tahdid;  
jinsiy kontentga majburlash;  
roziliksiz yaqinlik.

Ko'plab holatlar yashirin qoladi, bu esa ikkilamchi travmaga olib keladi.

Iqtisodiy zo'ravonlik o'quvchining moddiy resurslariga zarar yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Misollar:

pulini tortib olish;  
majburiy "badallar" yig'ish;  
shaxsiy buyumlariga ataylab zarar yetkazish;  
moliyaviy qaramlikdan foydalanish.

Institutsional zo'ravonlik maktab siyosati yoki amaliyoti orqali yuzaga keladi.

Ko'rinishlari:

adolatsiz baholash;  
kamsituvchi intizomiy choralar;  
alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni cheklash;  
shikoyat mexanizmlarining yo'qligi.

Madaniy zo'ravonlik stereotiplar orqali oqlanadigan zo'ravonlik shaklidir.

Shakllari:

gender asosida kamsitish;

nogironlik asosida rad etish;  
millat yoki til bo'yicha tahqirlash.

Beparvolik (e'tiborsizlik orqali zo'ravonlik) faol harakat emas, balki zarur yordamni ko'rsatmaslik orqali namoyon bo'ladi.

Misollar:

ehtiyojlarni e'tiborsiz qoldirish;  
moslashtirilmagan dars muhiti;  
himoyasiz vaziyatlarga befarqlilik.

Guruhli zo'ravonlik (mobing) bir necha shaxs tomonidan bitta o'quvchiga qarshi bosim o'tkazish.

uzoq davom etishi;  
rollarning mavjudligi (tajovuzkor–kuzatuvchi–jabrlanuvchi);  
psixologik zararining chuqurligi.

Ta'lim muassasalaridagi zo'ravonlik faqat jismoniy tajovuz bilan cheklanmay, ko'plab yashirin va tizimli shakllarda namoyon bo'ladi. Uni aniqlash va oldini olish uchun ilmiy asoslangan, kompleks va inklyuziv yondashuv zarur bo'ladi.

#### **Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalarining farzandi bilan o'zaro munosabatlaridagi strategik muhim nuqtalari:**

maslahat berishda yondashuvi – farzandingizga yomon yoki reaktiv maslahatlar bermaslikka harakat qiling. Uning kelajakda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda o'z yondashuvini rivojlantirishga yordam bering;

gapini to'liq eshitish – farzandingiz gapirayotganda so'zini bo'lmang. Suhbat davomida baland va tez ohangda gapirmang, tinch va sokin ohangni tanlang;

ochiq va do'stona pozitsiya – farzandingiz bilan muloqotda balandroq o'tirishdan saqlanib, biroz diagonal yoki yon tomonda joylashishga harakat qiling;

strategik qo'llab-quvvatlash – bolaning qiyin vaziyatlarda o'zini qanday tutishini aniqlab, ijobiy tomonlarini ayting. Masalan: "Jamshid, sen bu vaziyatda o'zini juda yaxshi tutding";

yordamni aniqlash va rozilik olish – zo'ravonlik yoki kamsitilish holatida boladan qanday yordam kutayotganini so'rang va har qanday harakatni amalga oshirishdan oldin uning roziligini oling. Uning jasoratini tushunganingizni bildiring.

#### **Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarda kamsitilish yoki zo'ravonlik holatlarini hal qilish usullari:**

muammoni aniqlash – muammo nima va siz bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini aniqlang;

eshitilganini his qilish – jabrlanuvchi bolaning o'zini eshitilgan his qilishi uchun fikr bildiring;

maslahatlarni sinash – bolaga berilgan maslahatlarning qaysi biri qisqa yoki qisman muvaffaqiyatli bo'lganini aniqlang;

yangi strategiyalar – bola zo'ravonlikka uchramaslik uchun boshqa nima qilishi mumkinligini o'rganing;

oqibatlarni tushuntirish – bola uchun keyingi xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini muhokama qiling. Qanday yo'l to'g'ri bo'ladi va uni amalga oshirish uchun nimalar zarurligini tushuntiring;

jasorat uchun rag'batlantirish – bolaga suhbat davomida jasorat ko'rsatgani uchun minnatdorlik bildiring;

qisqa va uzoq muddatli yordam – zo'ravonlik yoki kamsitilish sodir bo'lganda amalga oshirilgan harakatlarni muhokama qilish, jabrlangan bolaga qisqa va uzoq muddatli yordam beradi;

ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash – bola yangi do'stlar orttirishi, tanishlar doirasini kengaytirishi uchun yordam bering;

haqoratli so'zlarga e'tibor bermaslik – tajovuzkorlar tomonidan aytilgan haqoratli so'zlarga ko'p e'tibor bermaslikni tushuntiring;

his-tuyg'ularni tan olish – bolaga o'z his-tuyg'ularini tan olishga va ifoda etishga o'rgating;

muammoli vaziyatlarni yengish strategiyalari – odatda ishlatiladigan strategiyalarni muhokama qiling: o'z-o'zini tartibga solish usullari, masalan, musiqa tinglash, chuqur nafas olish, meditatsiya. Yangi strategiyalarni sinab ko'rishni tavsiya qiling;

ijodiy imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlash – bolaning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishini rag'batlantiring;

uzoq muddatli maqsadlar – natijaviyligi uzoq muddatli bo'lgan maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'lini tushuntiring;

yaxshi voqealar kundaligi – agar bola yozishni yoqtirsa, kundalik yozish orqali yaxshi voqealarni qayd qilishni tavsiya qiling.

Bu unga bullingning hayotdagi yagona hodisa emasligini tushunishga yordam beradi.

### **Uzoq muddatli strategiyalar va ish usullari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun:**

**1. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va do'stlikni rivojlantirish.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga yangi do'stlar orttirishda yordam berishda ota-onaning roli katta bo'ladi. Bolani do'stlari, oila a'zolari yoki yaqinlari oldida bezorilik haqida gapirishdan qo'rqqanlikka o'rgatish muhim hisoblanadi. O'zining qo'rquvini boshqalarga aytish, yangi hujumlardan oldin tayyorgarlik ko'rishdan oson va xavfsizroqdir.

Bolalarning o'z ichki "meni" bilan gaplashish qobiliyatini rivojlantirishi va ba'zan bu jarayonga aralashmaslikni nazorat qilish kerak.

**2. Kognitiv va ijobiy yondashuvni rivojlantirish.** Kognitiv terapiya

usullaridan foydalanishni o'rgatish: salbiy fikrlarni ijobiy fikrlarga aylantirish va muammolarni konstruktiv yondashuv bilan hal qilishga yordam beradi.

**3. Zo'ravonlik qilgan o'quvchi bilan ishlash.** Zo'ravonlik qilgan o'quvchi ko'pincha alohida yordamga muhtoj bo'ladi. Biroq, u bilan ishlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki psixolog unga qarshi salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin.

Ishlashning asosiy jihati: yetakchilik, hukmronlik o'rtasidagi farqni tushuntirish va kamsitmasdan yetakchi bo'lish imkoniyatini ko'rsatish. Ko'plab tajovuzkorlar mukammal muloqot va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'ladi. Ularni ijobiy maqsadlar uchun yo'naltirish muhim.

Ba'zan bullying oddiy zerikishdan kelib chiqadi, bolaning energiyasini va e'tiborini ijobiy faoliyatga yo'naltirish zarur.

Ko'pgina tajovuzkorlar hamdardlik, muzokara qobiliyati va boshqalarning ehtiyojlarini tan olish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ular do'st orttirish uchun boshqalarni xo'rlash orqali o'z strategiyasini ishlatadi.

Bezorilik ko'pincha o'ziga ishonchsizlik, e'tibor jalb qilish yoki kulgili (hazil) sifatida sodir qilinadi. Shu sababli bolaga mavjud alternativ (muqobil) xatti-harakatlarni o'rgatish muhim.

**4. Anti-bullying dasturlari va treninglar.** Anti-bullying dasturlarining barcha ishtirokchilari ijtimoiy va xulq-atvor ko'nikmalarini o'rgatishda qatnashadi. Maqsad: zo'ravonlik holatida jabrlanuvchi bolalar uchun xavfsiz va do'stona muhit yaratish turadi.

Treninglar davomida bolalar turli simulyatsiya qilingan vaziyatlarda mashq qiladi, xulq-atvor algoritmini o'rganadi va uni turli sharoitlarda qo'llashni amalda o'rganadi.

Ba'zan individual ish zarur bo'ladi, chunki ba'zi o'quvchilar texnikani to'liq o'zlashtirish uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi.

Trening natijalarini sinfda va guruhdan tashqarida qo'llashni rag'batlantirish natijasida olingan ko'nikmalar real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladi.

**5. Ota-onalar bilan hamkorlik.** Bullingning oldini olishda ota-onaning roli maktab bilan bir qatorda turadi. Ota-ona va maktab bilan birgalikda harakat qilishi zarur bo'ladi.

Bolaning zo'ravonlik qiluvchi yoki jabrlanuvchi ekanini aniqlash, vaziyatga doimiy aralashish va muammoni birgalikda hal qilish kerak.

Ko'plab bolalar ota-onalariga maktabdagi bezorilik holatlarini aytmaydi, shuning uchun ota-onaning farzandining xatti-harakatlari va muammolaridan xabardorligi juda muhim o'rinda turadi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi bo'shliqni kamaytirish: bolaning his-tuyg'ularini tinglash, muammolarni ochiq muhokama qilish, unga yordam berish va xavfsiz muhit yaratish kabilarni o'z ichiga oladi.

## Zo'ravonlikning bolaning rivojlanishiga salbiy ta'siri

Zo'ravonlik ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) zo'ravonlikni shaxsga nisbatan qasddan kuch ishlatish yoki hokimiyatdan foydalanish natijasida jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy zarar yetkazishga olib keladigan harakat sifatida ta'riflaydi.

Ta'lim muhitida zo'ravonlik bolaning ruhiy barqarorligiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va o'qishga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U qo'rquv, tashvish, ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun bu xavf yanada yuqori. Zo'ravonlik ularning psixik, emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ko'p tomonlama zarar yetkazadi. Natijada bola o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olmaydi va ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi.

**1. Psixologik va emotsional rivojlanishga ta'siri.** Maktabgacha va maktab yoshidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar odatda juda sezgir bo'ladi. Ular atrofdagi voqealarni chuqur his qiladi va salbiy ta'sirlarni og'irroq qabul qiladi.

Zo'ravonlikka duch kelgan bola:  
doimiy qo'rquv va xavotirda yashaydi;  
o'ziga ishonmay qoladi;  
o'zini past baholay boshlaydi;  
boshqalardan chetlashadi;  
tushkunlikka tushishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka uchragan bolalarda travmatik stress buzilishi (PTSD) belgilari sog'lom tengdoshlariga qaraganda tezroq va kuchliroq namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola uchun zo'ravonlik juda og'ir ta'sir qiladi. Bu holat uning xavfsizlik hissinı buzadi. Bola o'zini himoyasiz his qiladi va atrofdagilarga bo'lgan ishonchi kamayadi.

**2. Ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'siri.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda ko'proq yordam va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi.

Zo'ravonlik esa bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.  
Zo'ravonlikka duch kelgan bola:  
tengdoshlari bilan muloqotdan qochadi;  
yolg'izlikni afzal ko'ra boshlaydi;  
boshqalar bilan ishonchli munosabat o'rnatishda qiynaladi.

Natijada bola o'zini sinf yoki guruhning to'laqonli a'zosi deb his qilmaydi. U jamoadan ajralib qoladi. Bu holat inklyuziv ta'lim tamoyillariga zid bo'lib, bolani ijtimoiy chetlanishga olib keladi.

**3. Kognitiv rivojlanishga ta'siri.** Zo'ravonlik bolaning o'qish va fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Zo'ravonlikka duch kelgan bolada:

diqqatni jamlash qiyinlashadi;

o'rganilgan ma'lumotni eslab qolish susayadi;

o'qishga bo'lgan qiziqish kamayadi.

Natijada bola darslarni to'liq o'zlashtira olmaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun bu holat yanada og'ir kechadi. Chunki ular allaqachon o'ziga xos o'rganish sur'ati va qo'shimcha ehtiyojlarga ega bo'ladi. Zo'ravonlik ularning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi va ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni kuchaytiradi.

**4. Xulq-atvor va o'zini boshqarish qobiliyatiga ta'siri.** Agar bola tez-tez zo'ravonlikni ko'rsa yoki boshdan kechirsa, uning xulqi o'zgarishi mumkin.

Bunday bola:

tez jahli chiqadigan bo'lib qolishi mumkin;

boshqalarga qo'pol muomala qilishi mumkin;

yoki aksincha, juda qo'rqqoq va indamas bo'lib qolishi mumkin;

o'z his-tuyg'ularini boshqara olmay qoladi.

Ba'zan zo'ravonlikni ko'rgan bola keyinchalik o'zi ham boshqalarga yomon munosabatda bo'la boshlaydi. Shunday qilib, yomon munosabat yana davom etadi. Shuning uchun bolani doim himoya qilish va unga mehr berish juda muhim.

**5. Uzoq muddatli salbiy oqibatlar.** Bolalik davrida zo'ravonlikka duch kelish bolaning kelajak hayotiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, zo'ravonlikni boshdan kechirgan bolalarda:

o'smirlik davrida ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar paydo bo'lishi mumkin;

jamiyatga moslashish qiyinlashadi;

kelajakda mehnat faoliyati va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish murakkablashadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun bu xavf yanada yuqori bo'ladi. Agar zo'ravonlik o'z vaqtida oldi olinmasa, ularning mustaqil hayotga tayyorgarligi sezilarli darajada pasayadi. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida zo'ravonlik bunday bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli inklyuziv ta'lim tizimida zo'ravonlikning oldini olish, uni erta aniqlash va zarur choralarni ko'rish pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning muhim vazifasidir.

**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda bezorilik va zo'ravonlik qurboni bo'lishini oldini olish va ota-onalar bilan ishlashda:**

**1. Ota-onalarning ruhiy holati va mavjud muammolar.** Ko'p ota-onalar farzandining maktabdagi muammolarini tan olishda qiynaladi. Ular ko'pincha: "Maktabning o'zi hal qiladi" yoki "Vaqt o'tib ketadi" deb o'ylaydi. Natijada muammo o'z vaqtida aniqlanmaydi va bolaga yordam kechikadi.

Ba'zan ota-onaning o'z hayotiy tajribasi ham bunga ta'sir qiladi. Ayrim kattalar bolaligida zo'ravonlikni boshdan kechirgan bo'ladi. Shu sababli ular farzandining og'riqli holatini ko'rish yoki tan olishdan qochishi mumkin. Bu esa yordam ko'rsatishni qiyinlashtiradi.

Bolaning zo'ravonlikdagi roli ham muammoni aniqlash tezligiga ta'sir qiladi. Masalan, tajovuzkor bola haqida shikoyat tezroq yetib kelishi mumkin. Jabrlanuvchi bola esa ko'pincha jim yuradi va muammosini yashiradi. Shuning uchun uning holati kechroq bilinadi.

Ayrim xafa bo'lgan bolalar o'qituvchilar e'tiboridan chetda qolishi ham mumkin. Shu bois ota-ona va maktab doimiy muloqotda bo'lishi muhim.

**2. Zo'ravonlik qurbonining ota-onasi bilan ishlash.** Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan bolalarning ota-onalari kuchli tashvish, qo'rquv va aybdorlik hissini boshdan kechirishi mumkin. Shu sababli ular bilan ishlashda ularning his-tuyg'ularini tinglash va tushunish muhim. Ota-onaga bu holatda his qilayotgan kechinmalari tabiiy ekanini tushuntirish kerak. Bu ularning o'zini ayblashini kamaytiradi. Maslahat jarayonida psixolog ota-onalarga bolani qanday qo'llab-quvvatlash mumkinligini sodda va aniq tushuntiradi. Tavsiyalar bosqichma-bosqich, tartibli va tushunarli shaklda beriladi. Bu ota-onaga vaziyatni to'g'ri baholash va bolaga samarali yordam ko'rsatishga yordam beradi.

**3. Ota-onaning farzandiga yordam berish usullari.** Ota-ona bolaga eng yaqin tayanchdir. Uning qo'llab-quvvatlashi bola uchun juda muhim.

Quyidagi oddiy usullar yordam beradi:

Birgalikda vaqt o'tkazish. Masalan, tabiat qo'yniga sayr qilish, stadionga borish, sport bilan shug'ullanish yoki oddiy o'yinlar o'ynash. Bu bola o'zini xavfsiz va himoyalangan his qilishiga yordam beradi.

Uyda tinch va do'stona muhit yaratish. Uy bola uchun psixologik "boshpana" bo'lishi kerak. Bu yerda u o'zini erkin va xotirjam his qilishi muhim.

Kichik quvonchli lahzalar tashkil qilish. Masalan, qisqa sayrlar, sport zaliga borish yoki bola yoqtirgan mashg'ulotlarni birgalikda bajarish. Bu uning kayfiyatini ko'taradi va o'ziga ishonchini mustahkamlaydi.

Eng asosiysi, bola ota-onasi har doim yonida ekanini his qilishi kerak.

**4. Farzandning o'z qadr-qimmatini mustahkamlash.** Bola o'zini qadrlangan va kerakli his qilishi juda muhim.

Ota-ona:

bolaga tez-tez tabassum qiladi;

iliq va ijobiy so'zlar bilan gapiradi;  
uni rag'batlantiradi.

E'tibor o'tgan xatolarga emas, kelajakdagi imkoniyat va muvaffaqiyatlarga qaratiladi. Bu bola o'ziga ishonchini oshiradi.

Ota-onalar farzandini tengdoshlar muhitiga asta-sekin qo'shib boradi. Dastlab aralash guruhlar mos keladi. Masalan, to'garaklar, klublar yoki bo'sh vaqt mashg'ulotlari. Bu yerda bola muloqot qilish, fikr almashish va boshqalarni tushunishni o'rganadi.

Keyingi bosqichda bola tengdoshlari guruhiga qo'shiladi. Bu jarayonda faol muloqot bo'ladi, lekin kattalar nazorati saqlanadi. Masalan, sport to'garaklari, kino klublari yoki boshqa ijtimoiy faoliyatlar.

Maktab psixologi ota-onalarga shuni tushuntirishi mumkin: biz dunyoni to'liq o'zgartira olmaymiz, lekin bolani qiyinchiliklarga to'g'ri javob berishga, o'zini himoya qilishga va samarali muloqot qilishga o'rgata olamiz.

**5. Strategik vazifa.** Ota-ona va psixologning asosiy vazifasi — bolaning o'zini ishonchli his qilishi, tengdoshlari bilan xavfsiz muloqot qilishi va qiyin vaziyatlarda o'zini himoya qila olishini ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'limda zo'ravonlikning oldini olish va xavfsiz muhit yaratish juda muhim. Buning uchun har bir ishtirokchi - o'quvchi, o'qituvchi, psixolog va ota-ona — o'zini xavfsiz va hurmat qilingan his qiladigan muhit shakllantirilishi kerak.

Bolalar hali rivojlanish jarayonida bo'ladi. Ular tajribasi kamligi yoki maxsus ta'lim ehtiyojlari sababli o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiynalishi mumkin. Ba'zan ular o'z chegaralarini belgilay olmaydi yoki nizolarni to'g'ri yo'l bilan hal qila olmaydi. Shu sababli kattalarning o'z vaqtida va ehtiyotkor aralashuvi zarur. To'g'ri yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash orqali bolada xavfsizlik hissi shakllanadi va u sog'lom ijtimoiy muhitda rivojlanadi.

**Kattalarning roli va vazifalari.** O'qituvchining vazifasi - vaziyatni nazorat qilish, sinfni birlashtirish va aniq qoidalarni joriy etishdir. U bolalarga muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkonini yaratishi kerak.

Mojaro yoki tajovuzkorlik holatlarida maktab xodimlarining birgalikda harakat qilishi muhim. Zarur bo'lsa, ota-onalar ham jarayonga jalb etiladi.

Bolalar bilan ijtimoiy vaziyatlarni muntazam muhokama qilish ham foydali. Haftasiga bir necha marta 20–30 daqiqa davomida kamsitilish va zo'ravonlikning oldini olish haqida suhbatlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu suhbatlar dars oralig'ida yoki tarbiyaviy soatlarda tashkil qilinishi mumkin. Shuningdek, maktabda bullingga qarshi plakatlari va eslatmalar joylashtirish ham muhim. Bu bolalarga xavfsiz muhit va hurmat madaniyatini eslatib turadi.

**Himoyachilarni tayyorlash.** Zo'ravonlikning oldini olishda eng muhim vazifalardan biri - guvoh bo'lgan bolalarni "himoyachi" sifatida tayyorlashdir.

Ya'ni, zo'ravonlikni ko'rgan bola jim turmasligi kerak. U yordam berishni yoki kattalarga xabar berishni bilishi lozim.

Butun maktab jamoasi:

zo'ravonlik holati ko'z o'ngida sodir bo'lsa, befarq bo'lmasligi;

vaziyatga xavfsiz tarzda aralashishga tayyor bo'lishi;

zo'ravonlik haqida darhol o'qituvchi yoki boshqa kattalarga xabar berishi kerak.

Shunda maktabda xavfsiz va hurmatga asoslangan muhit shakllanadi.

Assertiv xulq-atvor. Assertiv xulq-atvor — bu insonning o'z huquqlarini hurmat bilan va ishonchli tarzda himoya qila olishidir. Bunda boshqalarning huquqlari ham e'tiborga olinadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

aniq va tushunarli gapirish;

oldindan o'ylangan oddiy ssenariylar asosida harakat qilish;

ko'z bilan aloqa qilish, tana harakati va ovoz ohangini to'g'ri ishlatish.

O'quvchi assertiv xulq-atvorni o'rgansa:

zo'ravonlik vaziyatida o'zini ishonchli his qiladi;

vaziyatni tinch yo'l bilan boshqarishga harakat qiladi;

bosim va manipulyatsiyaga berilmaydi;

o'z huquqlarini boshqalarga zarar yetkazmasdan himoya qila oladi.

Bu ko'nikma bolaga o'zini himoya qilish va sog'lom muloqot o'rnatishda yordam beradi.

Zo'ravonlikka qarshi ishlash. Psixologik faoliyat orqali:

zo'ravonlik holatlari sonini kamaytirish;

o'qituvchilarni ilmiy asoslangan harakatlar bilan tanishtiriladi

O'qituvchilar bilan ishlashning usullari:

zo'ravonlik tushunchasi va unga qarshi harakatlar bo'yicha qisqa mahorat darslarini tashkil qilish;

maktab strategiyasini ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar (ma'muriyat, o'qituvchilar, ota-onalar);

o'quvchilarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va sog'lom tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rgatish.

Strategik vazifalar. Zo'ravonlikning oldini olish va uni bartaraf etishda quyidagi vazifalar muhim:

maktabda psixologik xavfsiz muhit yaratish;

zo'ravonlikni erta aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun diagnostika ishlarini tashkil etish;

kamsitilish va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha dasturlarni sinflar va oilalar bilan ishlashga yo'naltirish;

psixologik-pedagogik markazlar va jamoat tashkilotlari kabi ijtimoiy

xizmatlar bilan hamkorlik qilish.

Dastlab sinfdagi boshqa o'quvchilarning fikrini bilish muhim. Ularga sodda savollar berish mumkin:

“Agar ko‘rishida muammosi bo‘lgan bola sinfingizga kelsa, u qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin?”

“Sizningcha, u bu qiyinchiliklarni yenga oladimi?”

“Agar unga yordam kerak bo‘lsa, siz yordam berasizmi?”

O'quvchilarning javoblari “qiyinchiliklar” va “yechimlar” shaklida umumlashtirilib, birgalikda muhokama qilinadi. Bu bolalarda tushunish va hamdardlikni rivojlantiradi.

### **O'qituvchining vazifalari**

ko‘rish qobiliyati past o'quvchi butunlay ko'rmaydi, deb o'ylamaslik. Masalan, rasm yoki matnni ko'rsatishda kitobni unga yaqin tutish;

doskadagi yozuvni ko'ra olmaydigan o'quvchi uchun ma'lumotni og'zaki tushuntirish. Bu usul boshqa o'quvchilar uchun ham foydali;

ko'zoynak yoki boshqa optik vositalardan erkin foydalanishiga sharoit yaratish;

qalin uchli ruchka yoki qalam, keng chiziqli qog'ozdan foydalanishga ruxsat berish. Bu yozuvni o'qishni osonlashtiradi.

Matn va topshiriqlarni moslashtirish ham muhim. Katta hajmdagi matnlarni o'qish ko'rish qobiliyati past bolalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli matnni qismlarga bo'lib berish yoki muhim joylarini ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi.

### **O'qituvchining amaliy vazifalari**

Ko'rish qobiliyati past o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

matnni o'qish jarayonini soddalashtirish;

ayrim topshiriqlarni boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda bajarish imkonini yaratish;

matnni tinglash yoki yozib olish sharoitini ta'minlash;

yozma ishlarida o'quvchining qulay va o'qilishi oson qo'l yozuviga e'tibor qaratish.

Ko'rish qobiliyati past o'quvchi imkon qadar barcha sinf faoliyatlarida ishtirok etishi kerak. Uni boshqa o'quvchilar bilan bir xil topshiriqlarga moslashtirish muhim. O'qituvchi diqqatini bolaning qila oladigan ishlariga qaratishi, faqat qiyinchiliklariga urg'u bermasligi lozim.

Sinf xonasi yetarli darajada yorug' bo'lishi, lekin o'quvchilar ko'ziga bevosita yorqin nur tushmasligi kerak.

### **Sinfdan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish**

Sinfda “do'stlik tizimi”ni joriy etish foydali. Tahqirlash, masxara qilish va kamsitishga qat'iy yo'l qo'yilmasligi zarur. O'qituvchi vaziyatni doim kuzatib borishi va bolalarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatishi kerak.

Sog'lom o'quvchilarda shukronalik va yordam berish tuyg'usi shakllantirilsa, ular bunday bolalar bilan do'stlashishga ochiqroq bo'ladi.

### **Maxsus pedagog va sinf o'qituvchisi hamkorligi**

Maxsus pedagog yoki asistent o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda o'quvchining ehtiyojlarini aniqlashi va unga mos sharoit yaratishi lozim. O'quvchining o'tirish joyi, darsdagi faolligi va xulqi muntazam muhokama qilinib boriladi. Bu uning sinfga moslashuvini osonlashtiradi.

Ota-onalar bilan aloqa qilish ham muhim. Bolaning qiziqishlari, kundalik odatlari va ehtiyojlarini bilish unga individual yondashuvni kuchaytiradi.

### **Aqliy rivojlanishida qiyinchilik bo'lgan bolalar bilan ishlash**

Barcha o'quvchilarga aqliy rivojlanishdagi qiyinchiliklar haqida sodda va tushunarli ma'lumot berish zarur. Xotirasi sust bo'lgan bolalarga eslatib turish, sabr bilan tushuntirish kerakligi sinfdoshlariga ham o'rgatiladi.

O'quvchilardan bunday tengdoshlariga qanday yordam bera olishlari haqida fikr so'rash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv sinfdagi hamjihatlikni kuchaytiradi.

Sinf o'qituvchisi va maxsus pedagog o'quvchining barcha qiyinchiliklarini faqat uning tashxisi bilan bog'lamasligi kerak. Har bir bola o'ziga xos imkoniyat va salohiyatga ega.

### **Ijoiy ta'lim muhiti**

Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari — o'qituvchilar, o'quvchilar va yordamchi xodimlar — bolalar uchun yaqin va ishonchli shaxs bo'lishi lozim. O'quvchilarga o'qituvchi bilan erkin muloqot qilish imkoniyati yaratilishi kerak.

Har bir dars quvnoq va rag'batlantiruvchi muhitda o'tishi muhim. O'quvchilarga “Eng yomon o'qituvchi qanday bo'ladi?” degan savolni berish mumkin. Ularning javoblari orqali salbiy xatti-harakatlar aniqlanadi va o'qituvchi o'z ishini takomillashtirish yo'llarini ko'ra oladi.

**Oila bilan hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tamoyillari.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan, aqliy rivojlanishida qiyinchiliklari bor o'quvchilarni samarali qo'llab-quvvatlash uchun maktab va oila o'rtasida muntazam muloqot bo'lishi zarur.

O'qituvchi ota-onalar bilan doimiy aloqa o'rnatishi, o'quvchining ehtiyojlari va dars jarayonidagi qiyinchiliklari haqida ochiq axborot almashishi kerak. Bu hamkorlik bolaga o'z vaqtida yordam ko'rsatishga yordam beradi.

O'quvchining har bir yutug'ini, hatto kichik natijalarini ham e'tirof etish muhim. Rag'batlantirish bolada o'ziga ishonchni kuchaytiradi va keyingi

muvaffaqiyatlarga undaydi.

O'qituvchi va pedagoglar bolalarning e'tirof etilish va muvaffaqiyatga erishish istagini qadrlashi kerak. Ijobiy baho va qo'llab-quvvatlash bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

**Shu jarayonda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:**

Ushbu jarayonda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

G'amxo'rlik - bolalarning muvaffaqiyatga erishish va e'tirof etilish istagini qo'llab-quvvatlash.

Aniq va real maqsadlar - yuqori, lekin erishish mumkin bo'lgan vazifalarni belgilash.

Hurmat - o'quvchilarning fazilatlari, ko'nikmalari va kuchli tomonlarini qadrlash.

Qayta imkon berish - qiyin vazifani bajara olmagan o'quvchiga yana urinib ko'rish sharoitini yaratish.

Ijodkorlik - darslarni qiziqarli, rang-barang va rag'batlantiruvchi shaklda tashkil etish.

Rejalashtirish va tashkillashtirish - o'quvchilarni turli tadbirlarga jalb etish va bu jarayonni oldindan puxta rejalashtirish.

Adolatli baholash - o'quvchilarning natijalarini muntazam va xolis baholab borish.

Samarali boshqaruv - sinfni to'g'ri boshqarish orqali salbiy xatti-harakatlarning oldini olish.

Maslahat va hamkorlik - boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashish va ularning bilim hamda ko'nikmalaridan foydalanish.

Bola gapirayotganda uning fikrini oxirigacha aytishiga imkon bering. So'zini bo'lmang va shoshiltirmang.

Agar u xato gapirsa, darhol to'g'rilamang. Uning fikrini muloyim tarzda to'ldirish yoki qayta ifodalash maqsadga muvofiq.

Bolaning o'rniga javob bermang. Savol bering va javob berishi uchun yetarli vaqt ajrating.

Bolani sinf oldida majburan gapirtirish to'g'ri emas. Uni asta-sekin umumiy muhokamalarga jalb etish kerak. Zarur bo'lsa, qisqa javob talab qiladigan yoki bosh qimirlatish bilan javob beriladigan oddiy savollardan foydalanish mumkin.

Agar bola nimani nazarda tutganini tushunmasangiz, tushungandek ko'rinmang. Aniqlashtiruvchi savollar bering. Topshiriqlarni sodda va aniq tushuntiring hamda bola ularni tushunganiga ishonch hosil qiling.

O'qituvchi gapirishdan oldin o'z fikrini aniq va tartibli shakllantirib olishi lozim. Noto'g'ri tuzilgan yoki chalkash izoh bola uchun tushunishni yanada qiyinlashtiradi. Shu sababli murojaat aniq, qisqa va sodda jumlar orqali berilishi

kerak. Imkon qadar ko'rgazmali vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Rasmlar, sxemalar, predmetlar yoki yozma namunalar ma'lumotni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi. Muqobil muloqot usullari - chizish, yozish, piktogrammalar yoki belgilar orqali tushuntirish - ayniqsa samarali bo'lishi mumkin.

Agar bola aytilgan gapni tushunmaganini sezsangiz, bir xil jumlani qayta-qayta takrorlash o'rniga uni boshqa, sodda shaklda bayon qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolaning yuz ifodasi, ko'z qarashi va tana harakatlarini kuzatish uning ma'lumotni qanchalik tushunayotganini aniqlashga yordam beradi. Bu kuzatuv o'qituvchiga o'z izohini moslashtirish imkonini beradi.

O'qituvchi chiroyli va madaniyatli muloqot namunasini ko'rsatishi, o'quvchilar uchun o'rnak bo'lishi lozim. O'quvchilarni aniq gapirish, diqqat bilan tinglash va suhbatdoshning so'zini bo'lmaslik kabi muloqot ko'nikmalariga o'rgatish muhimdir.

Guruh muhokamalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki muloqotda qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilar sinfdagi ravon muloqot qiluvchi tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik orqali ijtimoiy tajriba orttiradi. Shu bilan birga, barcha o'quvchilarda gapirish va tinglash madaniyatining asosiy qoidalari shakllantirilishi ta'minlanishi zarur.

Metodik qo'llanmalarda zo'ravonlik, ota-onalar (vasiylar) va tarbiyachilar, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning ota-onalari farzandining qadriyatlari, xulq-atvori, munosabatlari va shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi eng muhim axborot manbai hisoblanadi.

Maktab va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik ijobiy va mazmunli munosabatlarni shakllantirishga, zo'ravonlikning oldini olishga hamda o'quvchilarning ta'limiy rivojlanishini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bois barcha ota-onalar o'rtasida zo'ravonlikning oldini olish masalalari bo'yicha tizimli tushuntirish ishlari olib borish, ularning xabardorligini oshirish zarur. Ota-onalar maktabda zo'ravonlikka qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qo'llanilayotgan strategiyalar va berilayotgan axborot mazmunidan xabardor bo'lishlari lozim. Shuningdek, ular farzandlari bilan zo'ravonlik masalasida qanday suhbatlashish va ularni qanday qo'llab-quvvatlash mumkinligini bilishlari muhimdir.

Maktablar ota-onalarni ta'lim jarayoniga turli shakllarda jalb etishlari mumkin. Bunda o'quv dasturlari, metodik materiallar, maslahat guruhlari, rasmiy veb-saytlar hamda yozma axborot vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

pedagog va psixolog aniq yo'nalishda ishlaydi;

inklyuziv ta'lim real himoya mexanizmiga ega bo'ladi.

Finlyandiyada zo'ravonlikka qarshi ishlar individual himoya rejasi "butun maktab modeli" asosida olib boriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola uchun **"Individual Support Plan"** ishlab chiqiladi va:

har bir bola uchun xavf xaritasi tuziladi (qachon, qayerda, kim bilan xavf yuqori);

sinf o'qituvchisi, maxsus pedagog va psixolog yagona jamoa sifatida ishlaydi;

tengdoshlari orasidan qo'llab-quvvatlovchi "buddy" belgilanadi;

tanaffus va "ko'rinmas joylar" doimiy nazoratga olinadi.

Natijada Finlyandiyada zo'ravonlik holatlari keskin kamaygan, bola o'zini yolg'iz his qilmay boshlagan.

Kanadada zo'ravonlikka qarshi himoya Individual Safety Plan (ISP) orqali amalga oshiriladi. Reja bolaning ehtiyojiga mos moslashtirilgan va huquqqa asoslangan bo'ladi va:

har bir xavf darajasiga aniq javob chorasi belgilanadi;

bola bilan o'zini himoya qilish ko'nikmalari (kimga murojaat qilish, qayer xavfsiz) ishlab chiqiladi;

ota-ona, maktab va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida majburiy hamkorlik mavjud;

zo'ravonlik haqida xabar berish jazolanmaydigan muhitda yo'lga qo'yiladi.

Finlyandiya tajribasi ko'proq pedagogik muhit va tengdoshlar yordamiga tayansa, Kanada modeli huquqiy himoya va institutlararo hamkorlikka urg'u beradi.

Har ikki tajriba individual himoya rejasining samaradorligi uzluksiz monitoring va hamkorlikka bog'liqligini ko'rsatadi.

**Zo‘ravonlikka qarshi INDIVIDUAL HIMOYA REJASI (namunasi)**

| No | Baholash yo‘nalishi         | Aniqlangan holat / xavf                              | Himoya choralari                                        | Mas’ul shaxs      | Monitoring muddati |
|----|-----------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|-------------------|--------------------|
| 1  | Bola haqida umumiy ma’lumot | Nutqi cheklangan, o‘zini og‘zaki himoya qila olmaydi | Muqobil muloqot vositalari (rasm, ishora) joriy etiladi | Maxsus pedagog    | Doimiy             |
| 2  | Individual xavf omillari    | Tez qo‘rqadi, yig‘laydi, regress kuzatiladi          | Psixologik kuzatuv va qo‘llab-quvvatlash mashg‘ulotlari | Psixolog          | Haftalik           |
| 3  | Ta’lim muhiti               | Tanaffus payti nazoratsiz hududlar mavjud            | Tanaffuslarda navbatchilik kuchaytiriladi               | Maktab rahbarlari | Har kuni           |
| 4  | Tengdoshlar bilan munosabat | Jamoaviy o‘yinlardan chetlatilmoqda                  | Qo‘llab-quvvatlovchi tengdosh (“buddy”) biriktiriladi   | Sinf rahbari      | Oylik              |
| 5  | Kattalar bilan muloqot      | Shikoyatlarni yetkazishda qiyinchilik                | Ishonchli shaxs (o‘qituvchi/psixolog) belgilanadi       | Sinf rahbari      | Doimiy             |
| 6  | Ota-ona bilan hamkorlik     | Ota-ona xavotir bildirgan                            | Ota-ona bilan muntazam aloqa va maslahat                | Psixolog          | Oyda 1 marta       |
| 7  | Bola ko‘nikmalari           | “Yo‘q” deyish va yordam so‘rashni bilmaydi           | O‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish           | Psixolog          | 2 haftada 1 marta  |
| 8  | Xavf darajasi               | O‘rta xavf                                           | Rejani qayta ko‘rib chiqish                             | Ishchi guruh      | 3 oyda 1 marta     |

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni zo‘ravonlikdan himoyalash masalasi tasodifiy choralardan emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va individual yondashuv orqali hal etilishi zarur.

Mazkur ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik xavfini oldindan aniqlash, baholash va oldini olishda individual himoya rejasi muhim profilaktik vosita hisoblanadi.

Individual himoya rejasi bolaning rivojlanish xususiyatlari, muloqot imkoniyatlari va muhitdagi xavf omillarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi hamda pedagog, psixolog va ota-onalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta’minlaydi. Ushbu reja bolani nazorat qilishga emas, balki uni qo‘llab-quvvatlash, himoyalash va mustahkamlashga qaratilgani bilan inklyuziv ta’limning insonparvar mohiyatiga mos keladi.

Finlyandiya va Kanada tajribalari individual himoya rejalari maktab miqyosida tizimli joriy etilganda zo'ravonlik holatlari kamayishi, bolalarning o'zini xavfsiz his etishi va ta'lim jarayoniga faolroq jalb etilishini yaqqol namoyon etadi. Bu tajribalar milliy ta'lim tizimida ham individual himoya rejasini psixologik-pedagogik hujjatlar bilan integratsiyalash orqali samarali tatbiq etish mumkinligini tasdiqlaydi.

Individual himoya rejasi inklyuziv ta'limda zo'ravonlikning oldini olishning muhim mexanizmi bo'lib, u bolalarning xavfsizligi, ruhiy farovonligi va to'laqonli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan shu yondashuv maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida haqiqiy xavfsiz, adolatli va qo'llab-quvvatlovchi inklyuziv muhitni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

## V BOB. OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI

Ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan ishlash mexanizmlari

Ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan ishlash mexanizmi - bu bolaga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va aniqlangan holatlarda uni himoyalash maqsadida pedagog, psixolog va ota-onalar o'rtasida erta xabardorlikni oshirish, kelishilgan choralar va doimiy hamkorlikni ta'minlash tizimidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni zo'ravonlik holatlariga uchramasligi uchun ota-onalar bilan ishlash mexanizmlari:

maktabgacha yoshdagi bolalar o'zini himoya qila olmasligini inobatga olib profilaktika ishlarini ota-onalar bilan ishlashdan boshlash;

ota-onalarni inklyuziv tarbiya, bolaning xulqiy va emotsional xususiyatlari bo'yicha doimiy xabardor qilish;

zo'ravonlikning erta belgilari haqida tushuntiruvchi suhbatlar va seminarlar tashkil qilish;

ota-onalarni bolaga nisbatan jazolovchi emas, qo'llab-quvvatlovchi yondashuvga yo'naltirish;

oiladagi stress omillari bo'yicha psixologik maslahatlar berish;

tarbiyachi-psixolog-ota-ona o'rtasida ishonchli muloqot muhitini shakllantirish zarur.

Natijada zo'ravonlik xavfini oilaning o'zida kamaytirish va bolani himoyalovchi muhit yaratiladi.

Zo'ravonlik holatlariga uchraganda ota-onalar bilan ishlash:

Zo'ravonlik aniqlanganda maktabgacha ta'lim tashkiloti tezkor va ehtiyotkor harakat qilishi;

ota-onani vaziyat haqida xolis va ayblovsiz xabardor qilish;

bolaning ruhiy holatini birinchi o'ringa qo'ygan holda psixologik yordam rejasini kelishish;

ota-onaga bolani uy sharoitida qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq tavsiyalar berish;



zarurat bo'lsa, tibbiy, psixologik yoki ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirish;  
bu kabi holat takrorlanmasligi uchun individual himoya rejasini ota-ona bilan birga ishlab chiqish.

Maqsad bolani ikkilamchi ruhiy shikastlanishdan himoyalashdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni zo'ravonlikka uchramasligi uchun ota-onalar bilan ishlash mexanizmlari:

maktab yoshida zo'ravonlik ko'pincha tengdoshlar orqali yuzaga kelishini inobatga olib ota-onalar bilan ishlashni profilaktik hamkorlikka asoslash;

ota-onalarni farzandining maktabdagi ijtimoiy holati haqida muntazam xabardor qilib borish;

zo'ravonlik, kamsitish haqida ma'rifiy uchrashuvlar;

ota-onalarni farzandida zo'ravonlikka moyil yoki qurbonlik belgilarini aniqlashga o'rgatish;

sinf rahbari, psixolog va ota-ona o'rtasida uzluksiz aloqa mexanizmini yo'lga qo'yish;

ota-onalarni inklyuziv madaniyat va bag'rikenglik qadriyatlariga jalb qilish.

Zo'ravonlik holatlari yuzaga kelganda ota-onalar bilan ishlash:

maktabda zo'ravonlik aniqlanganda ota-onalar bilan ishlash huquqiy, psixologik va pedagogik muvozanat asosida olib borish;

ota-onaga holat haqida dalillarga asoslangan va xolis axborot berish;

bolaning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tezkor choralarni birgalikda kelishish;

jabrlangan bola va uning ota-onasiga psixologik qo'llab-quvvatlash;

zarur hollarda zo'ravonlik sodir etgan tomon ota-onasi bilan tuzatish va tarbiyaviy ishlar olib borish;

holat takrorlanmasligi uchun individual himoya rejasi va monitoring tizimini joriy etish.

"Erta aniqlash va hamkorlik mexanizmi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va aniqlangan holatlarda tezkor choralar ko'rish uchun pedagog – psixolog – ota-ona o'rtasida uzluksiz axborot almashuv yo'lga qo'yiladi.

pedagog bolaning xulqidagi o'zgarishlarni erta aniqlaydi;

psixolog vaziyatni tezkor baholaydi;

ota-ona darhol xabardor qilinadi va jarayonga jalb etiladi;

bola uchun individual himoya rejasi ishga tushiriladi va monitoring olib boriladi.

Natijada bola yolg'iz qoldirilmaydi va ta'lim muhitida uning xavfsizligi ta'minlanadi.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni zo'ravonlikdan himoyalashda ota-onalar bilan ishlash markaziy o'rin tutadi. Zo'ravonlikning oldini olishda ota-onalar bilan ma'rifiy va profilaktik ishlar ustuvor bo'lsa, zo'ravonlik aniqlanganda ular bilan hamkorlikka asoslangan, ayblovsiz va bolani himoyalovchi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.



Shu bois, maktabgacha va maktab ta'lim tizimida ota-onalar bilan ishlash faqat axborot berish emas, balki bolani himoyalashga qaratilgan uzluksiz pedagogik-psixologik hamkorlik tizimi sifatida yo'lga qo'yilishi zarur.

## Bolaning huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy sheriklik

**Ijtimoiy sheriklik** — davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.<sup>7</sup>

### **Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari:**

Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonunga bo'ysunish;  
teng huquqlilik;  
ochiqlik va shaffoflik;  
hammaboplik;  
mustaqillik;  
xolislik;  
o'zaro hurmat, manfaatlarining inobatga olinishi va mas'uliyat;  
majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.  
Ijtimoiy sheriklik nima va u nima uchun muhim?



**Ijtimoiy sheriklik** — bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning huquqlarini ta'minlash jarayonida ta'lim muassasasi, oila, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, mahalliy hamjamiyat va nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorlikda ishlash tizimidir.

**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning huquqlari:** faqat maktab yoki bog'cha doirasida emas, balki ta'lim – sog'liq – ijtimoiy muhit – oila uzviyligida himoya qilinadi.

Shu sababli ijtimoiy sheriklik huquqni qog'ozda emas, amalda ta'minlash mexanizmi muhim omil hisoblanadi.

**Ijtimoiy sheriklik orqali bola quyidagi asosiy huquqlardan real foydalanish imkoniga ega bo'ladi:**

sifatli va inklyuziv ta'lim olish huquqi;  
zo'ravonlik va kamsitishdan himoyalash huquqi;  
psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash olish huquqi;  
qarorlar qabul qilish jarayonida bolaning manfaatlarini inobatga olish huquqi;

oilasi bilan birgalikda qo'llab-quvvatlanish huquqi.

Finlyandiyada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilish ta'lim muassasasi o'zini zimmasiga yuklanmaydi.

Maktab:

sog'liqni saqlash xodimlari,

ijtimoiy xodimlar;

psixologlar va ota-onalar bilan yagona tarmoq sifatida ishlaydi.

Amaliy jihati:

bola uchun individual himoya rejasi (Individual Support Plan) ishlab chiqiladi;

barcha xizmatlar bitta reja asosida harakat qiladi;

ota-ona qaror qabul qilishda majburiy ishtirokchi hisoblanadi.

Bola muammosi "maktab muammosi" emas, balki jamiyat mas'uliyati sifatida ko'riladi.

Kanadada esa alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy sheriklik huquqiy majburiyat sifatida qoraladi.

Amaliy jihati:

maktab, ota-ona va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida rasmiy kelishuvlar mavjud;

zo'ravonlik yoki kamsitish holatlarida ijtimoiy xizmatlar darhol jalb etiladi;

ota-onalar "kuzatuvchi" emas, balki to'liq hamkor hisoblanadi.

Agar ijtimoiy sheriklik yetarli bo'lmasa:

bola muammosi kech aniqlanadi;

zo'ravonlik holatlari yashirin qoladi;

mas'uliyat bir tashkilot zimmasiga tushib qoladi;

bolaning huquqlari qog'ozda qolib ketadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilish faqat pedagogik vazifa emas, balki ijtimoiy sheriklikka asoslangan tizimli jarayondir. Finlyandiya va Kanada tajribasi shuni ko'rsatadiki, bola huquqlari eng samarali tarzda:

maktab;

oila;

ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlari hamkorligida ta'minlanadi.

Shunday ekan, inklyuziv ta'limning haqiqiy sifati bolaning sinfda bo'lishi bilan emas, balki uning huquqlari real himoyalanganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy sheriklik modelining maqsadi — maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish, xavfsizlik, kamsitilmaslik va psixologik qo'llab-quvvatlanish huquqlarini ta'minlashda ta'lim muassasasi, oila, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, mahalla institutlari o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan.

**Modelning asosiy tamoyillari:**

bola manfaatlarining ustuvorligi:

erta aniqlash va profilaktika:

hamkorlik va mas'uliyatni bo'lishish;

ayblovsiz va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv;

mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalanish.

**Ijtimoiy sheriklik subyektlari va ularning vazifalari:**

bolaning ta'lim va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi;

zo'ravonlik va kamsitishning erta belgilarini aniqlaydi;

individual himoya va rivojlanish rejalarini ishlab chiqadi;

ota-ona va mutaxassislar bilan hamkorlikni muvofiqlashtiradi.

**Ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar):**

bola haqida to'liq va haqqoniy ma'lumot taqdim etadi;

rejalashtirilgan choralarni uy sharoitida qo'llab-quvvatlaydi;

ta'lim muassasasi bilan ochiq muloqotda bo'ladi;

bola huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi.

**Psixologik va ijtimoiy xizmatlar:**

psixologik baholash va maslahatlar beradi;

zo'ravonlik xavfi mavjud bo'lsa, reabilitatsiya ishlarini olib boradi;

ota-ona va pedagoglar uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Sog'liqni saqlash tizimi:**

bolaning sog'lig'i va rivojlanish holatini baholaydi;

zarur hollarda tibbiy-psixologik yo'naltirish beradi;

ta'lim jarayoniga moslashtirish bo'yicha xulosalar beradi.

**Mahalla va jamoatchilik institutlari:**

oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi;

xavf guruhidagi bolalar va oilalar bilan ishlashda ishtirok etadi;

bolaga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda profilaktik rol o'ynaydi.

**Ijtimoiy sheriklikning ishlash mexanizmi (bosqichma-bosqich):**

**Erta aniqlash.** Pedagog yoki ota-ona tomonidan bolaning xulqi, emotsional holati yoki jismoniy belgilarida xavotirli o'zgarishlar aniqlanadi.

Birgalikda baholash. Psixolog, pedagog va ota-ona ishtirokida vaziyat tahlil qilinadi, xavf darajasi belgilanadi.

Individual himoya rejasini ishlab chiqish. Bola uchun individual himoya va qo'llab-quvvatlash rejasi tuziladi va unda har bir tengdoshining vazifasi belgilanadi.

Amaliy choralar. Ta'lim, psixologik, ijtimoiy va oilaviy yordam choralari bir vaqtda amalga oshiriladi.

Monitoring va qayta ko'rib chiqish. Rejalar muntazam tahlil qilinadi va bola rivojiga moslab yangilanadi.

Modelni joriy etishdan kutilayotgan natijalar:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquqlari real himoyalanaadi;

zo'ravonlik holatlari erta bosqichda aniqlanadi;

ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasida ishonch kuchayadi;

ta'lim muhitida inklyuziv va xavfsiz madaniyat shakllanadi;

mas'uliyat bir tashkilot emas, butun tizim zimmasida bo'ladi.



Mazkur ijtimoiy sheriklik modeli O'zbekiston sharoitida mavjud resurslar, institutlar va amaliy imkoniyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar huquqlarini qog'ozda emas, amalda himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu model inklyuziv ta'limni faqat ta'lim shakli emas, balki bolaning xavfsizligi, qadr-qimmatini va farovonligini ta'minlovchi ijtimoiy tizim sifatida qarash imkonini beradi.

## Mahalla, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik

**Mahalla, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikning asosiy maqsadi** — zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash, oldini olish va bola huquqlarini tezkor himoya qilishdir.

**Bu hamkorlik** faqat zo'ravonlik sodir bo'lganda emas, balki xavf paydo bo'lishidan oldin ishga tushirilishi kerak.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mahalla bilan hamkorligi:**

mahalla raisi va mas'ullari bilan xavf guruhidagi oilalar ro'yxatini muvofiqlashtirish;

oilaviy muhitda zo'ravonlik xavfi bo'lgan bolalarni birgalikda monitoring qilish;

ota-onalar bilan profilaktik suhbatlar va tushuntirish ishlarini tashkil etish; ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni mahalla orqali qo'llab-quvvatlash choralariga yo'naltirish.

Natijada zo'ravonlik xavfi oilaning o'zida kamayadi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sog'liqni saqlash tizimi bilan hamkorligi:**

tibbiyot xodimlari ishtirokida bolaning ruhiy va jismoniy holatini baholash; zo'ravonlikka ishora qiluvchi belgilar (jarohatlar, regress, qo'rquv) aniqlansa, tezkor yo'naltirish;

ota-onalarga bolaga zarar yetkazmasdan tarbiyalash bo'yicha tibbiy-psixologik maslahatlar berish.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligi:**

faqat og'ir holatlarda, bola manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda jalb etish;

zo'ravonlik holati tasdiqlansa, huquqiy himoya mexanizmlarini ishga tushirish;

pedagog va ota-onalarga bolani ikkilamchi travmadan himoya qilish bo'yicha tushuntirishlar berish.

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarini mahalla bilan hamkorligi:**

maktab hududida yashovchi bolalar bo'yicha ijtimoiy holat tahlili olinadi; tengdoshlari o'rtasidagi zo'ravonlikka moyil guruhlarini birgalikda aniqlanadi;



ota-onalar uchun mahalla bilan hamkorlikda ma'rifiy yig'ilishlar o'tkaziladi.

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarini sog'liqni saqlash tizimi bilan hamkorligi:**

maktab psixologi va shifokorlar o'rtasida doimiy axborot almashinuvi;  
zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar uchun psixologik reabilitatsiya;  
bolani zo'ravonlikdan keyin ta'lim jarayoniga yumshoq moslashtirish tizimi  
yo'lga qo'yiladi.

Natijada bola ruhiy jihatdan tiklanadi.

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligi:**

zo'ravonlik holatlarini yashirmaslik, lekin sensatsiyaga aylantirmaslik;  
huquqiy choralarni pedagogik va psixologik yondashuv bilan  
uyg'unlashtirish;

jabrlangan bola huquqlarini himoya qilishda ota-ona bilan birga harakat  
qilish.

Natijada maktabda adolat va insonparvarlik muvozanatda ta'minlanadi.

Hamkorlikning yagona ishlash mexanizmi:

xavf belgisi aniqlanadi;

maktab, bog'cha psixologi baholaydi;

zaruratga ko'ra mahalla, shifokor yoki huquqni muhofaza organlari jalb  
etiladi;

bola uchun individual himoya rejasi ishlab chiqiladi;

holat doimiy monitoring qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini  
olishda mahalla, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan  
hamkorlik nazorat yoki jazoga emas, balki erta aniqlash, profilaktika, bolaning  
manfaatlarini himoyalashga qaratilishi lozim.

Aynan shunday hamkorlik maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida  
xavfsiz va inklyuziv muhitni real tarzda ta'minlaydi.

## V BOB. OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI

Zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan trening va o'yinlar

**Zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan treninglar:**



**“Xavfsiz va xavfli vaziyatlar” treningi.**

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kundalik hayotdagi xavfsiz va xavfli holatlarni farqlash o'rgatiladi.

**“Men his qilyapman” treningi.**

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'z his-tuyg'ularini (qo'rquv, xafa bo'lish, quvonch) tanish va ifodalashni o'rganadi.



**“Yo'q deyishni o'rganamiz” treningi.**

Bola noqulay vaziyatlarda qat'iy va xushmuomalalik bilan “yo'q” deyishni mashq qiladi.

**“Ishonchli kattalar” treningi.**

Bolaga kimlarga murojaat qilish mumkinligi (ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi) tushuntiriladi.



**“Tanam — mening hududim” treningi.**

Mazkur treningda shaxsiy chegaralar va ruxsatsiz tegishga yo'l qo'ymaslik tushuntiriladi.

**“Birga kuchlimiz” treningi.**

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tengdoshlari bilan hamkorlik va bir-birini himoya qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.



**“Jim signalni ko'ramiz” treningi.**

Zo'ravonlik har doim qichqiriq emasligini, xulqidagi o'zgarishlar ham signal ekanini tushuntiradi.



### **“Men yordam so‘ray olaman” treningi.**

Bolada yordam so‘rash uyat emasligi haqidagi tushuncha shakllantiriladi.

### **“Bahsni zo‘ravonliksiz hal qilamiz” treningi.**

Mojarolarni urishsiz, gaplashib hal qilish mashq qilinadi.



### **“Xavfsiz maktab — mening maktabim” treningi.**

Bolada ta‘lim muassasasiga nisbatan ishonch va xavfsizlik hissi mustahkamlanadi.

### **Zo‘ravonlikni oldini olishga qaratilgan o‘yinlar:**

#### **“Yashil-sariq-qizil” o‘yini.**

Vaziyatlar xavfsiz (yashil), ehtiyot bo‘lish kerak (sariq), xavfli (qizil) sifatida ajratiladi.



#### **“Kim yordam beradi?” o‘yini.**

Rasmlar orqali qaysi katta odamlarga murojaat qilish mumkinligi aniqlanadi.

#### **“Hislar oynasi” o‘yini.**

Bolalar mimika va harakat orqali his-tuyg‘ularni ko‘rsatadi.



#### **“To‘xta!” signali o‘yini.**

Noqulay vaziyatda qanday qilib to‘xtatish mumkinligi jismoniy mashq orqali o‘rgatiladi.

#### **“Do‘stimni himoya qilaman” rolli o‘yini.**

Bolalar do‘stini masxara qilish yoki turtib yuborishdan himoya qilishni mashq qiladi.





**“To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” o‘yini.**

Pedagog vaziyat aytadi, bolalar uni baholaydi.

**“Xavfsiz yo‘l” o‘yini.**

Bog‘cha yoki maktabdagi xavfsiz va xavfli joylar aniqlanadi.



**“Yordam qo‘li” o‘yini.**

Bolalar qachon va kimdan yordam so‘rash mumkinligini tasvirlaydi.

**“Jim bo‘lib qolgan do‘st” o‘yini.**

Xulqiy o‘zgarishlar orqali muammo borligini aniqlashga o‘rgatadi.



**“Mehrli so‘zlar” o‘yini.**

Bir-biriga ijobiy so‘zlar aytish orqali psixologik zo‘ravonlikning oldi olinadi.

## Pedagoglar uchun amaliy keyslar va vaziyatli topshiriqlar

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar zo'ravonlik holatiga tushib qolganda pedagoglar ishlashi uchun mo'ljallangan amaliy keys va ularga mos vaziyatli topshiriqlar keltiriladi. Material maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim uchun mos bo'lib, amaliy xarakter kasb etadi.

**Bola jim bo'lib qolgan holat.**  
Oldin faol bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola so'nggi vaqtda gapirmay qo'ygan, ko'zga qaramaydi, o'yinlarda qatnashmaydi.

**Pedagog uchun topshiriq:**  
qaysi belgilar zo'ravonlik ehtimolini ko'rsatmoqda?



pedagog birinchi qadamda nima qilishi kerak?

qaysi mutaxassislar jalb etiladi?

**Natijada:**

zo'ravonlikka ishora qiluvchi erta xavf belgilari aniqlanadi (jimlik, chekinish, ijtimoiy izolyatsiya);

pedagog bolani bosimsiz, xavfsiz muloqotga olib kiradi va vaziyatni rasmiy ravishda qayd etadi;

psixolog va ota-ona jalb etilib, zarurat bo'lsa ijtimoiy xizmatlar xabardor qilinadi;

bola uchun individual himoya va qo'llab-quvvatlash rejasi ishlab chiqiladi;

bola asta-sekin o'zini xavfsiz his qila boshlaydi, zo'ravonlik erta bosqichda bartaraf etiladi.

**Tanaffusdan qo'rquvchan bola.** Bola tanaffus vaqtida hojatxonaga chiqishni yoki tashqariga chiqishni istamaydi.

**Pedagog uchun topshiriq:**

bu holat nimadan dalolat berishi mumkin?

“ko'rinmas joylar” qanday nazorat qilinadi?

bolaning xavfsizligi qanday ta'minlanadi?

**Natijada:**

tanaffus vaqtidagi qo'rquvning aniq sababi ochiladi (joy, shaxs yoki vaziyat bilan bog'liq);

maktab hududidagi xavf nuqtalari xaritalanib, u yerda muhit o'zgartiriladi;

bola uchun tanaffus stress emas, nazoratli va xavfsiz vaqtga aylantiriladi;

tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar barqarorlashadi;

bola o'z harakatlarini erkin rejalay boshlaydi va maktabga nisbatan ishonchi tiklanadi.

**Sababsiz yig'lash.** Bola ayrim boshqa (sog'lom) bolalar yaqinlashganda yig'lab yuboradi, lekin sababini ayta olmaydi.

**Pedagog uchun topshiriq:**

pedagog bola bilan qanday muloqot qilishi kerak?  
bosim qilmasdan qanday ma'lumot olish mumkin?  
ota-onani qachon jalb etish kerak?

**Natijada:**

pedagog bola bilan xavfsiz, xushmuomala va ishonchga asoslangan muloqot o'rnatadi, bosimsiz kuzatuv orqali vaziyatni tushunadi;

bola so'z bilan emas, rasm, harakat yoki o'yin orqali o'z kechinmalarini ifoda eta boshlaydi;

ota-ona barqaror takrorlanuvchi belgilar aniqlanganda yoki yig'lash sababi oydinlashmaganda jarayonga jalb etiladi;

bolaning qo'rquviga sabab bo'layotgan omil aniqlanadi va bartaraf etiladi;

natijada bola o'zini himoyalangan his qilib, tengdoshlar bilan muloqotga qayta kirisha boshlaydi.

**Jismoniy izlar.** Bolaning qo'lida va bo'ynida izohlanmagan ko'karishlar bor.

**Pedagog uchun topshiriq:**

bu holatda pedagog nimani qilmasligi kerak?  
kimlarga xabar beriladi?  
hujjatlashtirish qanday amalga oshiriladi?

**Natijada:**

pedagog bolani so'roq qilmaydi, ayblamaydi va yolg'iz holda tekshiruv o'tkazmaydi, vaziyatni yashirmaydi;

holat haqida maktab (maktabgacha ta'lim tashkiloti) psixologi, ma'muriyat va ota-ona xabardor qilinadi, zarurat bo'lsa tibbiyot xodimi va ijtimoiy xizmatlar jalb etiladi;

ko'karishlar sana, joy, tavsif bilan rasmiy qayd etilib, xizmat yozuvi yoki dalolatnoma tuziladi;

bola xavfsiz muhitga o'tkaziladi va individual himoya choralari belgilanadi;

natijada holat yashirin qolmaydi, bolaning jismoniy va ruhiy xavfsizligi o'z vaqtida ta'minlanadi.

Masxara qilish holati. Tengdoshlar bolaning nutqidagi nuqsonni masxara qilmoqda.

**Pedagog uchun topshiriq:**

vaziyatni darhol qanday to'xtatish mumkin?  
jabrlangan bola bilan qanday ishlanadi?

sinf bilan profilaktik ish qanday olib boriladi?

**Natijada:**

pedagog masxara qilishni darhol, xotirjam va qat'iy tarzda to'xtatadi, vaziyatni keskinlashtirmasdan bolalarni ajratadi;

jabrlangan bola bilan yakka tartibda qo'llab-quvvatlovchi suhbat o'tkazilib, uning his-tuyg'ulari eshitiladi va o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi;

sinf bilan bag'rikenglik, hurmat va farqlarga toqat mavzusida profilaktik mashg'ulotlar olib boriladi;

masxara qilgan bolalar bilan ayblovsiz, tushuntiruvchi ish tashkil etiladi;

natijada sinfda kamsitishga nisbatan nol toqat muhiti shakllanadi va jabrlangan bola o'zini himoyalangan his qiladi.

**Zo'ravon bola ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola.** Zo'ravonlik qilgan bola ham alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'ladi.

**Pedagog uchun topshiriq:**

jazolash o'rniga qanday yondashuv tanlanadi?

ikkala bolaning huquqlari qanday muvozanatlanadi?

psixolog qanday rol o'ynaydi?

**Natijada:**

jazolash o'rniga tuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv tanlanadi, zo'ravonlik xatti-harakati sabab va ehtiyojlar orqali tahlil qilinadi;

jabrlangan va zo'ravon bola huquqlari alohida himoya qilinib, biri jazolanmasdan, ikkinchisi e'tiborsiz qoldirilmaydi;

psixolog vositachi sifatida ishlaydi, emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish ustida individual mashg'ulotlar olib boradi;

har ikki bola uchun individual reja ishlab chiqiladi va monitoring yo'lga qo'yiladi;

natijada zo'ravonlik takrorlanmaydi, bolalar xavfsiz va adolatli muhitda rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

**Ota-ona inkor qilmoqda.** Ota-ona "Mening farzandim bilan hech narsa bo'lmagan" deb vaziyatni inkor etmoqda.

**Pedagog uchun topshiriq:**

ota-ona bilan suhbat qanday olib boriladi?

ayblovsiz yondashuv qanday bo'ladi?

hamkorlikni yo'lga qo'yish yo'llari?

**Natijada:**

ota-ona bilan suhbat tinch, hurmat qilinib va dalillarga tayangan holda olib boriladi;

hissiyotlarni qo'zg'atadigan iboralardan qochiladi;

ayblovsiz yondashuvda muammo “kim aybdor” emas, balki “bolaga qanday yordam beramiz” degan savol atrofida quriladi;

ota-onaga vaziyat bolaning rivoji va xavfsizligiga ta'siri tushunarli va ochiq tarzda izohlanadi;

hamkorlik uchun umumiy reja, aniq vazifalar va aloqa tartibi kelishib olinadi;

natijada ota-ona qarshilik ko'rsatishdan hamkorlikka o'tadi, bola esa uzluksiz qo'llab-quvvatlanadi.

**Bola yordam so'ray olmayapti.** Bola zo'ravonlikka uchrayapti, lekin yordam so'rashni bilmaydi.

**Pedagog uchun topshiriq:**

bolaga qanday himoyalani ko'nikmalari o'rgatiladi?

ishonchli kattalar qanday belgilanadi?

individual himoya rejasi qanday tuziladi?

**Natijada:**

bolaga oddiy va tushunarli himoyalani ko'nikmalari o'rgatiladi (baland ovozda yordam so'rash, “yo'q” deyish, xavfsiz joyga borish);

bola bilan birga ishonchli kattalar doirasi belgilanadi va ularga murojaat qilish mashq qilinadi;

bolaning ehtiyojlariga mos individual himoya rejasi ishlab chiqilib, unda aniq xavflar, choralar va mas'ullar ko'rsatiladi;

pedagog va psixolog tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi;

natijada bola yordam so'rashni o'rganadi, o'zini yolg'iz his qilmaydi va zo'ravonlikka qarshi himoyalangan bo'ladi.

**Zo'ravonlik onlayn shaklda.** Maktab yoshidagi bola messenjerlar orqali masxaralanmoqda.

**Pedagog uchun topshiriq:**

bu holatga pedagog aralashadimi?

ota-onalar bilan qanday ishlanadi?

psixologik yordam qanday ko'rsatiladi?

**Natijada:**

pedagog vaziyatga bevosita aralashadi, chunki onlayn zo'ravonlik bolaning ta'lim jarayoni va ruhiy holatiga ta'sir qiladi;

ota-onalar bilan xolis va dalillarga asoslangan suhbat o'tkazilib, onlayn xavfsizlik qoidalari va nazorat mexanizmlari kelishib olinadi;

psixolog bola bilan emotsional qo'llab-quvvatlash, o'ziga ishonchni tiklash va raqamli muhitda o'zini himoyalash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

zarurat bo'lsa, maktab darajasida profilaktik tushuntirish ishlari olib boriladi;

natijada bola ruhiy bosimdan chiqadi, onlayn zo'ravonlik to'xtatiladi yoki cheklanadi va bola o'zini xavfsiz his qila boshlaydi.

**Zo‘ravonlik takrorlanmoqda.** Oldin choralar ko‘rilgan bo‘lsa ham zo‘ravonlik yana takrorlandi.

**Pedagog uchun topshiriq:**

oldingi choralar nega samara bermadi?

qaysi tashkilotlar jalb etiladi?

monitoring tizimi qanday kuchaytiriladi?

**Natijada:**

zo‘ravonlikning takrorlanishi oldingi choralar yuzaki yoki individual ehtiyojlarni to‘liq qamrab olmaganini ko‘rsatadi va sabablar qayta tahlil qilinadi;

maktab psixologi bilan birga ota-ona, ijtimoiy xizmatlar, mahalla vakillari (zarurat bo‘lsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar) jarayonga jalb etiladi;

individual himoya rejasi qayta ko‘rib chiqilib, aniq muddatlar, mas’ullar va xavf nuqtalari bo‘yicha kuchaytirilgan monitoring joriy etiladi;

pedagogik jamoa o‘rtasida muntazam kuzatuv va axborot almashuvi yo‘lga qo‘yiladi;

natijada zo‘ravonlik nazoratga olinadi, takrorlanishining oldi olinib, bola barqaror va xavfsiz ta’lim muhitiga ega bo‘ladi.

**Pedagoglar uchun metodik eslatma:**

har bir vaziyatda bolaning manfaatlari ustuvorligini ta’minlash;

ayblash emas, himoyalash va tushunish muhim;

zo‘ravonlikni yashirish — ikkilamchi travmaga olib keladi;

har bir keys individual himoya rejasi bilan yakunlanishi kerak.



## Bolalar bilan ishlashda etik va professional yondashuv

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola ko'pincha o'zini himoya qila olmaydi, shuning uchun pedagogning har bir so'zi va munosabati juda muhim ahamiyat kasb etadi.



**Bolaga inson sifatida munosabatda bo'lish.** Pedagog bola haqida “u shunaqa”, “u tushunmaydi” degan fikrda bo'lmasligi kerak.

**Har bir bola:**

his qiladi;  
eshitadi;  
xafa bo'ladi;  
hurmatga muhtoj.

Agar bola hurmat qilinsa, zo'ravonlik uchun muhit qolmaydi.

**Baland ovoz va uyaltirishdan voz kechish.** Baland ovozda gapirish, hammadan oldida koyish yoki masxara qilish — bu ham psixologik zo'ravonlik hisoblanadi.

**Pedagog:**

xotirjam gapiradi;  
bolani chetga olib tushuntiradi;  
tanbehni yakka tartibda beradi.

**Tenglik va adolat muhitini yaratish.** Sinfda yoki guruhda:

hech kim kamsitilmasligi;  
alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga qarab kulmasligi;  
farqlarga hurmat bo'lishi shart.

Pedagog bu qoidani har kuni o'z xatti-harakati bilan ko'rsatishi kerak.

**Zo‘ravonlik sodir bo‘lganda etik yondashuv.** Zo‘ravonlik yuz berganida pedagogning noto‘g‘ri munosabati bola uchun ikkinchi jarohat bo‘lishi mumkin.

**Bolaga ishonish va bosim qilmaslik.** Agar bola yig‘lasa, jim bo‘lsa yoki qo‘rqib tursa:

uni majburlab gapirtirmaslik;

“nima bo‘ldi, ayt” deb bosim qilmaslik;

bolaning aytganiga ishonish kerak.

Bola gapirishga tayyor bo‘lganda, o‘zi ochiladi.

**Ayblamaslik va sharmanda qilmaslik.** Unda pedagog:

“nega o‘zingni himoya qilmading?”;

“nega aytmading?” kabi savollar bermaydi.

Bu savollar bolaning o‘zini aybdor his qilishiga olib keladi.

**Maxfiylikni saqlash.** Zo‘ravonlik holati:

Sinfda;

boshqa ota-onalar orasida;

pedagoglar xonasida ochiq muhokama qilinmaydi.

Bu bolaning obro‘si va ruhiy holatini himoya qiladi.

**Zo‘ravonlik sodir bo‘lmasligi uchun professional yondashuv.**

Professional yondashuv - bu tizimli ishlash deganidir

Bunda xulqdagı o‘zgarishlarga alohida e‘tibor berish kerak.

**Quyidagi holatlar beparvo qoldirilmasligi kerak:**

bola jim bo‘lib qolsa;

ko‘zga qaramasa;

o‘yinlardan chetlashsa;

ayrim joylardan qo‘rqsa.

Bular zo‘ravonlikning erta belgisi bo‘lishi mumkin.

**Pedagog yolg‘iz ishlamasligi va muammo bo‘lsa:**

psixolog;

ota-ona;

ta‘lim muassasasi ma‘muriyati bilan birga ishlash kerak.

“Men o‘zim hal qilaman” degan yondashuv noto‘g‘riligi tushuntirish.

**Har bir bola uchun alohida yondashuv.** Barcha bolaga bir xil choralar mos kelmaydi. Shuning uchun:

individual himoya rejasi,

individual qo‘llab-quvvatlash choralari belgilanadi.

Zo‘ravonlik sodir bo‘lganda professional yondashuv tartib asosida harakat qilishdan boshlanadi.

**Pedagog:**

vaziyatni qayd etadi;

psixolog va rahbariyatni xabardor qiladi zarurat bo'lsa, boshqa xizmatlarni jalb etadi.

Hammasi hissiyot bilan emas, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shuningdek bola bilan ishlashni davom ettirish zarur.

**Zo'ravonlik to'xtatilgach ish tugamaydi:**

bola bilan ruhiy tiklanish ishlari olib boriladi;

qayta zo'ravonlik bo'lmasligi uchun monitoring qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda:

etik yondashuv - bolani hurmat qilish va himoyalash;

professional yondashuv - muammoni tizimli va mas'uliyat bilan hal qilishdir.

**Agar pedagog:**

hurmat bilan muomala qilsa;

o'z vaqtida zo'ravonlik holatini sezsa;

to'g'ri choralar ko'rsa, shundan keyin zo'ravonlik oldi olinadi yoki o'z vaqtida to'xtatiladi, bola esa o'zini xavfsiz his qiladi.

## XULOSA

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, u dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammoni kompleks va tizimli yondashuv asosida yoritib beradi. Qo'llanmada inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, uning huquqiy-me'yoriy bazasi hamda amaliy mexanizmlari izchil bayon etilgan.

Asarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik, ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, ushbu toifadagi bolalarning zo'ravonlikka nisbatan yuqori darajada zaifligi ilmiy asoslar bilan ochib berilgan. Zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy shakllari, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik va bulling holatlari ta'lim muhitida qanday namoyon bo'lishi, ularning bola rivojlanishiga salbiy ta'siri aniq misollar, tushunchalar orqali yoritilgan.

Qo'llanmaning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ta'lim muassasasi darajasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq amaliy chora-tadbirlar ko'rsatib berilgan.

Xususan, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratish, pedagoglar, psixologlar, maxsus pedagoglar, ota-onalar hamda boshqa mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari batafsil tavsiflangan.

Shuningdek, qo'llanmada zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash, xavf darajasini baholash va bola uchun individual himoya rejasini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa ta'lim muassasalarida profilaktik faoliyatni kuchaytirish va bolalarning huquqlarini real himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha pedagoglar, psixologlar va ta'lim muassasalari rahbarlari uchun muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi.

Qo'llanma ta'lim jarayonida insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun xavfsiz va hurmatga asoslangan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent <https://lex.uz/docs/-6445145> ;
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Toshkent <https://lex.uz/docs/-5013007> ;
3. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-7219502> ;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5044711> ;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-5679836> ;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-6779571> ;
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2025-yil 14-iyuldagi 440-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7648472> ;
8. UNESCO, Inclusive Education: A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education, Paris: UNESCO, 2017. <https://www.unesco.org/en/education/inclusion> ;
9. UNESCO, Behind the Numbers: Ending School Violence and Bullying, Paris: UNESCO, 2019. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000366483> ;
10. World Health Organization (WHO), INSPIRE: Seven Strategies for Ending Violence Against Children, Geneva: WHO, 2016. <https://www.who.int/publications/i/item/INSPIRE> ;
11. UNICEF, Violence Against Children in Schools: A Global Issue, New York: UNICEF, 2020, <https://www.unicef.org/protection/violence-against-children-schools> ;
12. UNICEF, Child Protection and Inclusive Education, New York: UNICEF, 2018. <https://www.unicef.org/education/inclusive-education> ;

13. United Nations, Convention on the Rights of the Child (CRC), New York, 1989. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child> ;
14. United Nations, Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD), New York, 2006. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities>
15. OECD, Students' Well-Being: PISA Results, Paris: OECD Publishing, 2017. <https://www.oecd.org/education/pisa-2015-results-volume-iii-9789264273856-en.htm> ;
16. Bronfenbrenner, U, The Ecology of Human Development, Harvard University Press, 1979. <https://doi.org/10.2307/j.ctv1pncq9k> ;
17. Maslow, A. H., Motivation and Personality, New York: Harper & Row, 1970. <https://psycnet.apa.org/record/1970-08112-000>
18. American Psychological Association (APA), Trauma-Informed Care in Schools, Washington, DC, 2017. <https://www.apa.org/education-career/k12/trauma-informed-schools> ;
19. Save the Children, Ending Violence Against Children in Education Settings, London, 2018. <https://www.savethechildren.org/us/what-we-do/education>.
20. [https://t.me/ijtimoiyhimoya\\_agentligi](https://t.me/ijtimoiyhimoya_agentligi) rasmiy telegram kanali.
21. Gʻoziyev E.Gʻl. - Umumiy psixologiya (2002), 220-235-betlar.
22. Haydarov F.I., Nabiyeu A.A. - Shaxs va jamiyat psixologiyasi (2010), 140-155-betlar;
23. Karimova V.M. - Ijtimoiy psixologiya (2008), 95-110-betlar.

**“Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga nisbatan zoʻravonlikni oldini olish” oʻquv uslubiy qoʻllanma 2026-yil 27-mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy metodik markazi huzuridagi “Inklyuziv taʼlim va psixologiya” yoʻnalishi boʻyicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yigʻilish bayoni bilan nashrga maʼqullangan.**





